# 9 - sinf O’zbekiston tarixi fanidan testlar

1. (20141)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligining sharqiy chegarasi qaysi tog‘ tizmasiga borib tutashgan edi?
A) Tyan-Shan
B) #Pomir
C) Tibet
D) Hisor

2. (20141)Buxoro amirligining markaziy qismi qaysi vohada bo‘lgan?
A) Qashqadaryo vohasi
B) Murg‘ob vohasi
C) #Zarafshon vohasi
D) Vaxsh vohasi

3. (20141)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi qaysi davlatlar bilan chegaradosh bo‘lgan?
A) #Eron, Afg‘oniston, Qo‘qon va Xiva xonliklari, Qozoq juzlari yerlari
B) Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Xitoy, Xiva va Qo‘qon xonliklari
C) Qozoq juzlari, Orenburg general-gubernatorligi, Eron, Xiva va Qo‘qon xonliklari
D) Xiva va Qo‘qon xonliklari, Eron, Hindiston, Qozoq juzlari, Xitoy

4. (20141)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligiga hozirgi Tojikistondagi qaysi hududlar kirgan?
A) Ko‘lob, Panjikent, Dushanbe viloyatlari
B) O‘ratepa, Ro‘shan, Andarob vohalari
C) Muzko‘l, Alichur, Panj vohalari
D) #Vaxsh, Kofirnihon, Panj vodiylari

5. (20141)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligiga hozirgi Turkmanistondagi qaysi hududlar kirgan?
A) Ko‘lob, Panjikent viloyatlari
B) Marv va Andarob vohalari
C) Chorjo‘y va Shibirg‘on viloyatlari
D) #Mug‘ob daryosi vohalari

6. (20141)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida nechta beklik mavjud bo‘lgan?
A) #27 ta
B) 40 ta
C) 15 ta
D) 38 ta

7. (20141)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligi chegarasini tomonlari bilan to‘g‘ri ko‘rsating.
1) g‘arb;
2) sharq;
3) janub;
4) shimol.
a) Pomir tog‘lari;
b) Amudaryoning chap sohilidagi yerlar;
c) Qozoq juzlari yerlari;
d) Xiva xonligi
A) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c
B) #1-d, 2-a, 3-b, 4-c
C) 1-d, 2-a, 3-c, 4-b
D) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d

8. (20141)XIX asr 2-yarmida Xiva xonligi hududi ... dan iborat bo‘lgan.
A) 200 ming km.kv.
B) 800 ming km.kv.
C) #130 ming km.kv.
D) 300 ming km.kv.

9. (20141)XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligi chegarasini tomonlari bilan to‘g‘ri ko‘rsating.
1) g‘arb;
2) sharq;

3) janub;
4) shimol.
a) Eron;
b) Buxoro amirligi;
c) Kaspiy dengizi;
d) Qozoq juzlari yerlari
A) 1-a, 2-d, 3-b, 4-c
B) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c
C) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b
D) #1-c, 2-b, 3-a, 4-d

10. (20141)Xiva xonligida bekliklarni ... boshqargan.
A) no‘yon va noiblar
B) #bek va to‘ralar
C) amir va dorug‘alar
D) voliy va no‘yonlar

11. (20141)XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligida nechta beklik mavjud bo‘lgan?
A) 27 ta
B) #40 ta
C) 15 ta
D) 38 ta

12. (20141)Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi to’qnashuvli vaziyatga sabab bo‘lgan hududlarni aniqlang.
A) Ko‘lob, Vaxsh, Qobadiyon
B) Sherobod, Hisor, Kofirnihon
C) #Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, Sho‘g‘non
D) Xo‘jand, O‘ratepa, Hisor, Pishpak

13. (20141)Qo‘qon xonligi sharqda qaysi hudud bilan chegaradosh bo‘lgan?
A) Xitoy
B) Hindiston
C) Qozoq juzlari
D) #Sharqiy Turkiston

14. (20141)Qo‘qon xonligi geografiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonliginikidan nimasi bilan farqlanadi?
A) #sersuv daryolar, so‘lim vodiylar va serhosil yerlarga boyligi bilan
B) kichik pastekistliklar, yirik tog‘lar va cho‘llarga boyligi bilan
C) yirik pastekistliklar, tog‘lar, qirlar va to‘g‘lardagi serunum yerlarga boyligi bilan
D) toshloq yerlar, o‘rmonzorlar, yirik tog‘lar va cho‘llarga boyligi bilan

15. (20141)XIX asr o‘rtalari Xiva xonligi aholisining soni qancha bo‘lgan?
A) 130 ming
B) 2 mln.
C) 3 mln.
D) #800 ming

16. (20141)XIX asr o‘rtalari Qo‘qon xonligi aholisining soni qancha bo‘lgan?
A) 130 mingdan ortiq
B) 2 mln. ga yaqin
C) #3 mln. ga yaqin
D) 800 mingdan ortiq

17. (20141)XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo xonliklarining hududi bugungi kundagi O‘zbekistondan tashqari, qaysi davlat yerlarining bir qismini o‘z ichiga olgan?
A) Qozog‘iston, Tojikiston, Eron, Afg‘oniston, Pokiston
B) #Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston,Turkmaniston
C) Tojikiston, Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston
D) Turkmaniston, Tojikiston, Qozog‘iston, Eron

18. (20142)Amir Muzaffar hukmronlik yillarini aniqlang.
A) #1860-1885-yillar
B) 1826-1860-yillar
C) 1856-1886-yillar
D) 1852-1868-yillar

19. (20142)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida viloyat va tuman hokimlari ...
A) devonbegi tavsiyasi bilan qo‘shbegi tomonidan tayinlangan
B) mehtar tavsiyasi bilan xon tomonidan tayinlangan
C) #qo‘shbegi tavsiyasi bilan xon tomonidan tayinlangan
D) otaliq tavsiyasi bilan qo‘shbegi tomonidan tayinlangan

20. (20142)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida tashqi aloqalarni yuritish bilan qaysi mansabdor shug‘ullangan?
A) qo‘shbegi
B) ko‘kaldosh
C) #devonbegi
D) mehtar

21. (20142)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida davlat hujjatlarini yuritish ishlariga qaysi mansabdor mas’ul bo‘lgan?
A) #mirzaboshi
B) mushrif
C) devonbegi
D) mehtar

22. (20142)XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligida amir qo‘shinlarining bosh qo‘mondoni nima deb yuritilgan?
A) amirlashkar
B) yasovulboshi
C) mirshabboshi
D) #to‘pchiboshi

23. (20142)XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligida oliy amaldor devonbegi hisoblanib, uning ixtiyorida ... dan iborat kengash faoliyat ko‘rsatgan.
A) mehtar, qo‘shbegi, mirzaboshi
B) inoq, otaliq, biylar
C) #qo‘shbegi, mehtar, otaliq
D) mirzaboshi, qozikalon, qo‘shbegi

24. (20142)XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligida tartib intizom ishlariga qaysi mansab egasi mas’ul bo‘lgan?
A) amirlashkar
B) #yasovulboshi
C) mirshabboshi
D) to‘pchiboshi

25. (20142)XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligida eng yuqori harbiy lavozim qaysi bo‘lgan?
A) #amirlashkar
B) mingboshi
C) mirshabboshi
D) to‘pchiboshi

26. (20142)XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligida xazina ishlari va davlat xarajatlarini qaysi lavozim egasi nazorat qilib borgan?
A) mushrif
B) devonbegi
C) xudaychi
D) #mehtar

27. (20142)Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganida oziq-ovqat ortilgan ... aravaga ega bo'lgan va ... gacha askarni yig'a olardi.
A) 9 ming, 30 ming
B) #12 ming, 60 ming
C) 12 ming, 40 ming
D) 3 ming, 50 ming

28. (20143)XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari aholisining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, yerga egalik tartiblari qay darajada ekanligi nima bilan belgilangan?
A) egallab turgan mansabi yoki jamiyatdagi e'tibori bilan
B) davlat lavozimlarida ishlash yoki ishlamasligi bilan
C) #to'lanadiga soliq va to'lovlarning miqdori bilan
D) harbiy lavozimlardagi mavqei bilan

29. (20143)Vaqf yerlaridan olinadigan foyda hisob-kitobi va taqsimoti bilan kim shug'ullangan?
A) sadr
B) muftiy
C) muhtasib
D) #mutavalli

30. (20143)XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari aholisi soliq va to'lovlarni qanday ko'rinishda to'lagan?
A) #mahsulot yoki pul ko'rinishida
B) faqat mahsulot ko'rinishida
C) faqat pul ko'rinishida
D) hokimning o'z yonidan davlatga to'lab yuborilgan, so'ng xalqdan ish hayvonlari, mahsulot va boshqa moddiy buyumlar hisobida yig'ib olingan

31. (20143)XIX asrda O'rta Osiyo xonliklarida sug'orish inshootlari, yo'llar qurilishi kabi ishlar qanday tartibda bajarilgan?
A) professional ustalar tomonidan bajarilgan
B) har bir xo'jalik tomonidan o'ziga tegishli hududda o'zlari tomonidan bajarilgan va buning evaziga bir yillik soliqlardan ozod qilingan
C) #aholi tomonidan majburiyat tarzida bajarilgan
D) soliq to'lovlarining 1/10 qismi ajratib olinib, shu mablag' hisobidan bajarilgan

32. (20143)O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilikning ma'lum bir sohasi rivojlangan bo'lib, quyidagi shaharlari rivojlangan hunarmandchilik sohasi bilan to'g'ri ko'rsating.
1) Rishton;
2) Chust;
3) Buxoro;
4) Xiva;
5) Marg'ilon;
a) do'ppichilik, pichoqchilik;
b) atlas to'qish, do'ppichilik;
c) me'morchilik, ganchkorlik;
d) zargarlik;
e) kulolchilik.
A) 1-a, 2-e, 3-d, 4-c, 5-b
B) #1-e, 2-a, 3-d, 4-c, 5-b
C) 1-d, 2-a, 3-e, 4-b, 5-c
D) 1-e, 2-c, 3-d, 4-a, 5-b

33. (20143) "Yerga, dalaga oid" mazmunini beruvchi atama to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
A) pulug
B) begar
C) barot
D) #agrar

34.(20143)Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullaniladigan hududga, aholining dehqonchilik bilan bandligi va ularning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi ustun bo‘lgan joyga nisbatan qo‘llaniladigan atama qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) axya
B) kasana
C) #agrar
D) adra

35.(20143)XIX asrda O‘rta Osiyodagi ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan omilni aniqlang.
A) O‘rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi
B) #uch davlat o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, ichki nizo va notinchliklar
C) ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qo‘l mehnatida qilinganligi, soddaligi
D) hunarmandchilikning boshqa sohalarga qaraganda sust rivojlanishi

36.(20144-5)Quyidagi me’moriy inshootlari qurilgan yili bilan to‘g‘ri ko‘rsating.
1) Muhammad Aminxon madrasasi;
2) Sulton Murodbek madrasasi;
3) Hokim Oyim madrasasi;
4) Hazrati Kalon Sohibzoda madrasasi;
5) Muhammad Rahimxon madrasasi;
6) Xudoyorxon saroyi.
a) 1851-1855-y.;
b) 1871-yil;
c) 1872-yil;
d) 1862-yil;
e) 1869-yil;
f)1863-1870-yil.
A) 1-a, 2-b, 3-e, 4-d, 5-f, 6-c
B) #1-a, 2-c, 3-e, 4-d, 5-b, 6-f
C) 1-e, 2-a, 3-c, 4-b, 5-f, 6-d
D) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c, 6-f

37.(20144-5)Ahmad Donishning astranomiya faniga oid asarini toping.
A) #“Manozir ul-kavokib”
B) “Ravzat us-safo”
C) “Buxorodan Peterburgga sayohat”
D) “Navodir ul-vaqoe”

38. (20144-5)Ogahiy qalamiga mansub tarixiy asarlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
1) “Baxr ul-asror”;
2) “Riyoz ul-mulk”;
3) “Zubdat ut-tavotix”;
4) “Riyoz ud-davla”;
5) “Ravzat ussafo”;
6) “Gulshani davlat”;
7) “Gulshani muluk”;
8) “Shohidi iqbol”;
9) “Manozir ul-kavokib”;
10)“Firdavs ul-iqbol”.
A) 1, 5, 9, 10
B) 2, 4, 6, 8, 10
C) #3, 4, 6, 8
D) 3, 5, 7, 9

39.(20144-5)Tillashayx jome’ masjidi qaysi shaharda bunyod etilgan?
A) Qo‘qon
B) Buxoro
C) Xiva
D) #Toshkent

40. (20144-5)XIX asrda O'rta Osiyo xalqlari orasidagi dostonlarning aksariyatida qanday g'oya yetakchilik qilgan?
A) #ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi
B) hukmdorlar, sarkardalarning g'ayritabiiy jasoratlari
C) majoziy obrazlar (hayvon timsolida) va ularning sarguzashtlari
D) oxiri fojiaviy voqealar bilan tugaydigan ta'sirchan g'oyalar

41. (20144-5)Muhammad Rizo Ogahiy qaysi tillarni mukammal bilgan?
A) uyg'ur, turk, hind, fors
B) #arab, fors, turk
C) sanskrit, arab, hind
D) hind, mo'g'ul, turk, afg'on, fors

42. (20144-5)Buxoro amiri Muzaffarning taklifi bilan yozilgan asarni aniqlang.
A) "Buxorodan Peterburgga sayohat"
B) "Zubdat ut-tavorix"
C) "Ravzat us-safo"
D) #"Manozir ul-kavokib"

43. (20144-5)Munisning avlodlarga qoldirgan ilmiy merosi nimalardan iborat?
1) "Ravzat us-safo" asari 1-jildining tarjimasi;
2) "Shohidi iqbol" asari;
3) 18 ming misradan ziyod devoni;
4) Xorazmning 1812-yilgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan "Firdavs ul-iqbol" asari;
5) 16 ta tarixiy, ilmiy va tarjima asarlari;
A) 2,3, 5
B) #1, 3, 4
C) 1, 2, 5
D) 2,4, 5

44. (20144-5)Saroy shoirlari boshlig'i, ya'ni "Malik ushshuaro" nomini olgan allomani aniqlang.
A) Ahmad Donish
B) Munis
C) Ogahiy
D) #Fazliy

45. (20144-5) "Qish" g'azalining muallifi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Ahmad Donish
B) Munis
C) #Ogahiy
D) Fazliy

46. (20144-5)Mo'yi muborak madrasasi qaysi shaharda bunyod etilgan?
A) Samarqand
B) #Toshkent
C) Qo'qon
D) Buxoro

47. (20144-5)Ahmad Donishning Buxoro elchilari bilan birga Moskva, Peterburg shaharlariga sayohatga borgan yilini aniqlang.
A) #1857-yil
B) 1865-yil
C) 1852-yil
D) 1862-yil

48. (20144-5)Xiva xonligiga Muravyov boshchiligida Rossiya elchilari kelgan yili ...
A) Shermuhammad Munis vafot etdi
B) #Munjis Mirxondni "Ravzat us-safo" asari o'zbek tiliga tarjima qila boshladi
C) Ogahiy tug'ildi

D) Ahmad Donish tug'ildi

49. (20144-5) "Manozir ul-kavokib" asari nechanchi yilda yozilgan?
A) 1855-yil
B) 1862-yil
C) 1857-yil
D) #1865-yil

50. (20144-5) "Ravzat us-safo" asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Xondamir
B) Munis
C) #Mirxond
D) Ogahiy

51. (20144-5)Ollohqulixon, Muhammad Aminxon va Muhammad Rahimxon madrasalari qanday usuldagi me'morchilik an'anasida bezalgan edi?
A) quyoshda uzoq vaqt quritilgan to'q qizil rang ustidan yashil va oq rangli tasvirlarning tushirilishi bilan
B) peshtoqlarga qushlar va hayvonlar rasmi aks ettirilgan kufiy yozuvlar bilan
C) har bir g'ishtning alohida-alohida ranglar bilan bo'yab, har xil shakllar yasalishi bilan
D) #tiniq zangori rang ustidan oq va yashil gullar tushirilgan koshinlar bilan

52. (20144-5)Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida keltirilishicha, milliy teatr san'atimizning qadimiy ildizlari nimalarga borib taqaladi?
A) harbiy ko'rik va harbiy mashg'ulotlarga
B) hukmdorlar saroyida tashkil etilgan san'at truppalariga
C) qadimgi rim va yunon teatri an'analariga
D) #xalq o'yin va tomoshalariga

53. (20144-5)Shermuhammad Munis nechanchi yillarda yashagan?
A) #1778-1829-yillar
B) 1787-1828-yillar
C) 1774-1823-yillar
D) 1779-1827-yillar

54. (20144-5)Ogahiy nechanchi yillarda yashagan?
A) 1803-1872-yillar
B) 1802-1872-yillar
C) 1807-1873-yillar
D) #1809-1874-yillar

55. (20144-5) "Buxoroyi sharif mang'it amirlari muxtasar tarixi" asarining muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Muhammad Sharif Buxoriy
B) Sadriddin Ayniy
C) Mahmudxo'ja Behbudiy
D) #Ahmad Donish

56. (20144-5)Darvishlar uchun maishiy xona va masjiddan iborat yotoqxona nima deb atalgan?
A) #xonaqoh
B) majmua
C) hujra
D) maqbara

57. (20144-5)Truppa so'zining mazmuni qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) doston kuychilari, baxshilarning og'zaki asarlari
B) #teatr yoki sirk artistlari jamoasi
C) xalq qahramonligi madh etilgan asarlar to'plami
D) teatr artistlari tomosha qo'yadigan sahna

58. (20144-5)Ahmad Donish nechanchi yillarda yashagan?

A) 1809-1874-yillar
B) 1812-1892-yillar
C) #1827-1897-yillar
D) 1827-1899-yillar

59.(20144-5)XIX asrda Baroqxon madrasasini ta’mirlash ishlari nechanchi yildan boshlandi?
A) 1857-yil
B) 1865-yil
C) #1859-yil
D) 1819-yil

60.(20144-5)Xiva me’moriy obidalarining qaysi biri Ark darvozasi qarshisida bunyod etilgan?
A) Muhammad Aminxon madrasasi
B) #Muhammad Rahimxon madrasasi
C) Rahmonqul Inoq saroyi
D) Ollohqulixon madrasasi

61.(20144-5)Rossiyaning O‘rta Osiyo chegaralaridagi dastlabki (Irtish daryosi sohilida) istehkomi nechanchi yilda vujudga keldi?
A) 1789-yil
B) 1734-yil
C) #1718-yil
D) 1737-yil

62.(20146)1843-yil Xiva va Buxoroga kelgan ingliz diplomatiyasining vakilini aniqlang.
A) #J. Abbot
B) D.Volf
C) A.Byorns
D) A.Konnoli

63.(20146)Oqmachit qal’asi ruslar tomonidan qancha vaqtda egallangan?
A) 1 oy
B) 2 oy
C) 13 kun
D) #20 kun

64.(20146)Ingliz elchisi A. Byorns Buxoroda bo‘lganidan 20 yil o‘tib …
A) #Perovskiy Oqmachit qal’asini bosib olishga urinib, mag‘lub bo‘ldi
B) Sirdaryo quyi oqimida Raim qal’asi bunyod etildi
C) Aleksandr II Qo‘qon xonligini bosib olishni davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qildi
D) Toshkentga birinchi yurish amalga oshirildi

65.(20146)Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi uchun harakatlarini tezlashtirgan omillarni aniqlang.
1) Aleksandr II ning Qo‘qon xonligini davlat sifatida tugatish to‘g‘risidagi farmoni;
2) Rossiya imperiyasining sanoat xomashyosiga, xususan, paxtaga bo‘lgan ehtiyojining ortishi;
3) Rossiyaning ishlab chiqargan mahsulotlari uchun qo‘shimcha iste’mol bozorining zarurligi;
4) qozoq juzlarining Rossiya fuqaroligiga o‘tishi;
5) ingliz elchilarining Buxoro amiri tomonidan o‘ldirilishi;
6) ingliz tovarlarining O‘rta Osiyoga kirib kelishi va Angliyaning bu hududga nisbatan qiziqishining ortishi;
7) Sirdaryo va Irtish sohillaridagi istehkomlarga xonliklar qo‘shinlarining hujumlari;
8) Rossiya imperiyasining Qrim urushidagi mag‘lubiyati.
A) 1, 3, 4, 7
B) #2, 3, 6, 8
C) 2, 4, 6, 7, 8
D) 1, 2, 3, 5, 6, 8

66.(20146)Rossiya imperiyasining Raim istehkom qal’asi qayerda qurilgan edi?
A) Sirdaryoning o‘rta oqimida
B) Irtish daryosi bo‘yida

C) #Sirdaryoning Orolga quyilish joyida
D) Orol dengizining g‘arbiy qismida

67.(20146)Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga harbiy yurishlarini boshlashiga bahona bo‘lgan omillardan birini aniqlang.
A) Rossiyaning Qrim urushidagi mag‘lubiyati
B) #chegara hududlarda yashaydigan Rossiya fuqarolari bo‘lgan aholiga nisbatan talonchilik qilib turuvchi guruhlarning hujumlarini bartaraf etish
C) 1717-yil A.Bekovich-Cherkasskiy va 1839-yil Perovskiy boshchiligidagi ekspeditsiyaning barbod etilishi qasdini olish
D) Angliya hukumatining O‘rta Osiyoga bir necha marta o‘z elchilarini yuborishi

68.(20146)1864-1885-yillarda Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo xonliklarining ... hududini bosib olib, mustamlakaga aylantirdi.
A) #1mln. 583255 km.kv.
B) 588522 km.kv.
C) 1 mln. 883225 km.kv.
D) 255886 km.kv.

69.(20146)Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan qaysi hududlarda Turkiston viloyati tashkil etildi?
A) Buxoro amirligining shimoliy hududlari va Qo‘qon xonligining Turkiston shahrida
B) Qo‘qon xonligining shimoliy-sharqiy hududlarida
C) Buxoro amirligining shimoliy-g‘arbiy hududlari va Toshkent shahrida
D) #Qo‘qon xonligining shimoliy-g‘arbiy viloyatlari va Toshkent shahrida

70.(20146) Qrim urushi boshlan yili (1853)yili ...
A) O‘zbek va tojik aholi yashaydigan Amudaryoning janubidagi hududlar Afg‘oniston viloyatiga aylantirildi
B) Rossiya imperatori Aleksandr II hukmronligi boshlandi
C) #Chor Rossiyasi qo‘shinlari Oqmachit qal’asini bosib oldi
D) Stoddart va Konnoli amir tomonidan qatl etildi

71.(20146)Rossiya imperiyasining  harbiy harakatlarning tayanchig aylangan va Petrovskiy porti deb nomlangan qal’ani toping.
A) Raim
B) #Oqmachit
C) Niyozbek
D) Kopal

72.(20146)Nima sababdan Rossiya imperiyasining Toshkentni bosib olishi zarur hisoblangan?
A) chunki bu shahar Qo‘qon xonligining harbiy markazi bo‘lib, u egallansa, butun xonlik harbiy jihatdan zaiflashar edi
B) #bu shahar O‘rta Osiyoning bosib olish uchun asosiy yo‘lak, rus harbiylarining kelgusidagi harakatlari uchun tayanch nuqta vazifani bajaradigan joy bo‘lganligi
C) chunki bu shahar Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi chegarasida joylashgan, Xiva xonligiga olib boriladigan asosiy yo‘l ustida joylashgan edi
D) bu shahar suv yo‘li orqali Xiva xonligiga olib boradigan qulay geografik hududda joylashgan edi

73.(20146)Rossiya imperiyasi qo‘shinlari Toshkentni bosib olish maqsadida dastlab nechta yo‘nalishdan yo‘lga chiqadi?
A) 3 ta
B) 4 ta
C) #2 ta
D) bitta

74.(20146)M.Chernyayev tomonidan bosib olinga Avliyoota hozirgi qaysi shahar hisoblanadi?
A) #Taroz
B) Almati
C) Chimkent
D) Sayram

75. (20146)1864-yil Turkiston va Chimkent shaharlari mudofaasiga rahbarlik qilish uchun Qo'qon xoni kimni qo'shin bilan jo'natadi?
A) Solihbek dodxohni
B) #Aliqulini
C) Abdurahmon Oftobachini
D) Iso Avliyoni

76. (20146)Rus qo'shinlari tomonidan Turkiston shahrining osonlik bilan egallanishiga olib kelgan omil nima edi?
A) amirlashkar Alimqulning yaralanib vafot etishi va shahar mudofaasini tashkil eta oladigan sarkardaning yo'qligi
B) Turkistonni suv bilan ta'minlab turgan daryo suvining boshqa tomonga oqizib yuborilishi va shaharning suvsiz qoldirilishi
C) #N.Veryovkinning Turkiston taslim bo'lmasa, shahardagi muqaddas qadamjolar va Ahmad Yassaviy maqbarasini to'pga tutishini bilbiruvchi tahdidi
D) yordamga kelayotga Buxoro amiri qo'shinlarining kechikishishi

77. (20146)Podsho hukumatining Sirdaryo istehkom chizig'i qaysi qal'alar oralig'ida vujudga keldi?
A) Verniy va Semipalatinsk
B) Kopal va Raim
C) Yangi Qo'qon va Verniy
D) #Oqmachit va Raim

78. (20146)1864-yil Rus qo'shinlari tomonidan qaysi shahar egallanganidan keyin, Yangi Qo'qon chizig'i asosida qo'lga kiritilgan qal'alar birlashtirildi?
A) Oqmachit
B) Toshkent
C) #Chimkent
D) Verniy

79. (20146)Podsho hukumatining Sibir istehkom chizig'i qaysi shaharlar oralig'ida vujudga keldi?
A) #Verniy va Semipalatinsk
B) Orenburg va Avliyoota
C) Yangi Qo'qon va Verniy
D) Chimkent va Turkiston

80. (20146)Podsho Rossiyasiga Toshkentning "ixtiyoriy ravishda topshirilishi" to'g'risidagi soxta shartnoma shaharning nechta oqsoqoli tomonidan imzolangan?
A) 3 ta
B) #9 ta
C) 11 ta
D) 5 ta

81. (20146)Rossiya imperiyasi tomonidan uch kunlik jangdan keyin bosib olingan shaharni aniqlang.
A) Namangan
B) Andijon
C) #Turkiston
D) Xo'jand

82. (20146)XIX asrdagi Toshkentning 12 darvozasi nomlari to'g'ri keltirilgan javobni toping.
1) Labzak;
2) Sebzor;
3) Taxtapul;
4) Ko'kcha;
5) Qorasaroy;
6) Taxta;
7) Sag'bon;
8) Chig'atoy;
9) Chimboy;
10) Kaykovus;

11)Samarqand;
12)Xitoy;
13)Kamolon;
14)Feruza;
15)Beshyog'och;
16)Namozgoh;
17)Qo'ymas;
18)Qo'qon;
19)Qipchoq;
20)Qashg'ar.
A) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 11, 13, 14, 15, 20
B) 2, 3, 4, 5, 8, 9, 10, 11, 13, 14, 16, 18
C) 2, 4, 5, 6, 7, 9, 11, 12, 13, 15, 17, 19
D) #1, 3, 4, 5, 7, 8, 11, 13, 15, 17, 18, 20

83. (20146)XIX asrda Toshkentni mudofaa qilish uchun qurilgan devor ortidagi xandaq qaysi ariqning suvi bilan to'ldirilgan?
A) #Kaykovus
B) Bo'zsuv
C) Zovariq
D) Chirchiq

84. (20146)XIX asr o'rtalarida Toshkent aholisi qancha bo'lgan?
A) 30 mingga yaqin
B) 70 mingga yaqin
C) #80 mingga yaqin
D) 100 mingdan ortiq

85. (20146)M.Chernyayevning Toshkentga uyushtirgan birinchi hujumida qancha askaridan ayrilgan?
A) 24 ta
B) #70 dan ortiq
C) 90 ta
D) 50 ga yaqin

86. (20146)Toshkent darvozasi deb nom olgan qal'ani aniqlang.
A) Kopal
B) Oqmachit
C) #Niyozbek
D) Kamolon

87. (20146)Toshkent shahri himoyachilarining yengilishi va istilochilarning qo'li ustun kelishini ta'minlagan omillardan birini aniqlang.
A) shaharning ayrim oqsoqollari tomonidan jangsiz taslim bo'lish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi
B) #amirlashkar Aliqulining vafot etishi va himoyachilarning yagona boshliqsiz qolishi
C) rus harbiy qo'shinlariga general M.Chernyayevning qo'mondon etib tayinlanishi
D) shahar qal'asining himoyachilar tomonidan yoqib yuborilishi

88. (20146)Quyidagi qaysi voqea ruslarga Toshkentni suv bilan ta'minlab turgan suvning uzib qo'yish imkonini berdi?
A) #Chernyayev tomonidan Niyozbek qal'asining bosib olinishi
B) Kaykovus arig'ining boshqa yo'nalishga burib yuborilishi
C) podsho hukumati tomonidan Oqmachit qal'asining bosib olinishi
D) Kamolon darvozasi yonidan istilochilarning shaharga bostirib kirishi

89. (20146) "Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risidagi Muvaqqat Nizom" qachon qabul qilingan?
A) 1867-yil 11-iyulda
B) 1865-yil 18-mayda
C) 1867-yil 12-avgustda
D) #1865-yil 6-avgustda

90. (20146)“Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom”ga muvofiq viloyat bo‘limlarining harbiy asosda tashkil etilishidan maqsad nima edi?
A) O‘rta Osiyoning bosib olingan hududlariga harbiy qal’alar qurish va u yerda harbiy holat joriy qilish
B) Rossiya imperiyasining boshqa viloyatlaridan farqli ravishda bu o‘lkalarda mustaqil siyosiy va ijtimoiy siyosat olib borish
C) #Rossiya hukumatining kelgusidagi harbiy rejalarini amalga oshirilishida tayanch hudud vazifasini o‘tashi ko‘zda tutilgan
D) rus harbiy zobitlarni boshqaruvdagi mansablar bilan ta’minlash orqali rag‘batlantirish

91. (20146)Biror masala yuzasida bir davlat hukumatining boshqa bir davlat hukumatiga bayon qilgan, hech qanday e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan qat’iy talabi nima deyiladi?
A) kontributsiya
B) nota
C) #ultimatum
D) delegatsiya

92. (20146) Tohiriy Abul Abbos Abdulloh hukmronligi tuganidan 1000 yil o’tib ...
A) Verden shartnomasi imzolandi
B) Xalifa Ma’mun hukmronligi tugadi
C) #Mayor I.Volf  Buxoroga keldi
D) Bobek boshchiligidagi qo‘zg‘olon bostirildi

93. (20146)Rossiya imperiyasi o‘z chegaralarini sharqqa tomon kengaytirish uchun dastlab qaysi tadbirni amalga oshirishga intildi?
A) #Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan har tomonlama aloqalar o‘rnatishga
B) O‘rta Osiyo davlatlari chegarasida harbiy istehkomlar qurishga
C) harbiy ekspeditsiyalar tashkil etishga
D) O‘rta Osiyo chegarasidagi shaharlarni bosib olishga

94. (20146)Verniy qal’asi hozirda qaysi shaharda joylashgan edi?
A) Ashxabod
B) Orenburg
C) Janbul
D) # Almati

95. (20146)1864-1885 yillarda …
A) chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga bosqinining ikkinchi davri bo‘ldi
B) #chor Rossiyasi O‘rta Osiyo hududining 1583255 kv. km hududini bosib oldi
C) chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga bosqinining ikkinchi davri bo‘ldi
D) chor Rossiyasi O‘rta Osiyo hududining 1835255 kv. km hududini bosib oldi

96. (20146)Chor Rossiyasi tomonidan O‘rta Osiyo hududlarining bosib olinish ketma-ketligi to‘g‘ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) #Avliyoota, Turkiston, Chimkent, Toshkent
B) Oqmachit, Turkiston, Toshkent, Xo‘jand
C) Chimkent, Oqmachit, Jizzax, Toshkent
D) Chimkent, Turkiston, Verniy, Toshkent

97. (20146)Xiva xonligiga yuborilgan Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi muvaffaqiyatsizlikka uchragach, podsho hukumati O‘rta Osiyoni qo‘lga kiritish uchun qanday tadbirni amalga oshirishga kirishdi?
A) yangi-yangi harbiy ekspeditsiyalarni tashkil qilish
B) #harbiy istehkomlar qurish
C) O‘rta Osiyoga qarshi Afg‘oniston bilan ittifoq tuzish
D) qozoq juzlari va qoraqalpoqlarni o‘z fuqaroligiga kiritish

98. (20146)Rossiya imperiyasi 1718-yil qaysi daryo sohili bo‘ylab yettita istehkom qurgan edi?
A) Sirdaryo
B) Ural
C) Volga
D) #Irtish

99. (20146)Qaysi ingliz elchisi Buxorodan qaytib ketayotganida ikki hamrohi bilan yo'lda halok bo'ladi?
A) I.Volf
B) #M.Murkroft
C) J.Abbot
D) A.Byorns

100. (20146)1842-yilda Buxoro amiri tomonidan qatl etilgan Ch.Stoddart va A.Konnolilar Buxoroga qanday taklif bilan kelgan edi?
A) o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohillarida ingliz harbiy istehkomlarini qurish
B) Sirdaryo sohillarida harbiy istehkomlar qurish, ularning qurilishida ingliz muxandislarini taklif qilish
C) Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, ingliz harbiy mutaxassislarini Boxoroga yuborish, savdo aloqalarini yo'lga qo'yish
D) #O'rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ular bilan Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish

101. (20146)Chor Rossiyasi O'rta Osiyoga yurishining uchinchi bosqichi nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?
A) 1873-1876-yillar
B) 1864-1873-yillar
C) 1865-1868-yillar
D) #1873-1879-yillar

102. (20146)1865-yil Orenburg general-gubernatorligi tarkibida tashkil etilgan Turkiston viloyatining gubernatori lavozimiga birinchi bo'lib kim tayinlangan?
A) #M.Chernyayev
B) K.Kaufman
C) M.Skobelev
D) A.Abramov

103. (20146)Ingliz elchilari Ch.Stoddart va A.Konnolilar Buxoro amiri tomonidan qatl etilgach, bunga javoban ingliz hukumati qanday tadbir qo'llaydi?
A) Buxoro amirligi hududiga o'z josuslarini jo'natadi
B) Buxoroga qarshi Rossiya imperiyasini qo'llabquvvatlash to'g'risida rus hukumati bilan kelishib oldi
C) Amudaryoning janubiy sohilidagi o'zbeklar yashaydigan hududlarni bosib oldi
D) #Buxoroga qarshi Afg'oniston bilan sulh tuzib, ularni qurollantiradi

104. (20147)1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligining markazi qaysi shahar edi?
A) Verniy
B) #Toshkent
C) Turkiston
D) Avliyoota

105. (20147)Turkiston harbiy okrugi nechanchi yilda tuzildi?
A) #1867-yil
B) 1886-yil
C) 1865-yil
D) 1868-yil

106. (20147)1865-yil tashkil etilgan Turkiston viloyati podsho Rossiyasi hukumati uchun qanday vazifani bajardi?
A) O'rta Osiyo paxta xomashyosini bir joyga yeg'ib, uni Possiyaning markaziy o'lkalariga jo'natadigan joy
B) #harbiy harakatlarni olib borishda harbiy markaz
C) o'lkada temiryo'l qurilishini tashkil etish va unga boshchilik qilish
D) uchala xonlikning siyosiy holati xususida ma'lumot to'plash va xonlarning faoliyatini nazorat qilish

107. (20147)Nima sababdan O'rta Osiyoda Rossiya hukumati alohida general-gubernatorlik tashkil qildi?
1) O'rta Osiyoning Rossiya markazidan uzoqda joylashganligi;
2) podsho hukumati tomonidan kelgusida bosib olinadigan yerlarning shu ma'muriy hududga birlashtirish;
3) O'rta Osiyoning Orenburg general-gubernatorligidan uzoqda joylashganligi;
4) O'rta Osiyo hududida yirik xalq ozodlik kurashlarining bo'lganligi;

5) yana bitta general-gubernatorlik tashkil qinishi uchun O‘rta Osiyo hududi va aholisining to‘g‘ri kelganligi;
6) Angliya hukumatining janubdan bo‘ladigan xavfini o‘z vaqtida bartaraf qilish uchun alohida harbiy-ma’muriy hududning zarurligi.
A) #2, 3, 5
B) 1, 4, 5
C) 2, 4, 6
D) 1, 3, 4, 5

108. (20147)Turkiston general-gubernatori K.Kaufman bir paytning o‘zida ...
1) volost va uyezdlar boshlig‘i;
2) Turkiston o‘lkasida joylashgan barcha harbiy qo‘shin qo‘mondoni;
3) Yettisuv kazaklari qismi qo‘mondoni;
4) o‘lkaning bosh sudyasi;
5) imperatorning siyosiy agentligi boshlig‘i;
6) Turkiston viloyati gubernatori.
A) 2, 5, 6
B) 1, 3, 4, 5
C) #2, 3, 4
D) 1, 2, 3, 4, 6

109. (20147)Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi hududi jihatidan eng kichik viloyatni aniqlang.
A) Sirdaryo
B) Kaspiyorti
C) #Samarqand
D) Yettisuv

110. (20147)Turkiston general-gubernatorligi dastlab nechta ma’muriy viloyatdan iborat bo‘lgan va ular qaysilar?
A) 2 ta, Yettisuv va Turkiston viloyati
B) 5 ta, Samarqand, Kaspiyorti, Yettisuv, Sirdaryo, Farg‘ona viloyatlari
C) 3 ta, Yettisuv, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari
D) #2 ta, Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari

111. (20147)Turkiston general-gubernatorligiga qarashli, 2000 kv. *verst* maydonga ega bo‘lgan ma’muriy viloyatni aniqlang.
A) Sirdaryo
B) Kaspiyorti
C) #Samarqand
D) Yettisuv

112. (20147)Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Sirdaryo viloyatiga qaysi hududlar kirgan?
A) Buxoro amirligining shimoli va Qo‘qon xonligining 1865-yilgacha bosib olingan hududlari
B) #1865-yilda tashkil etilgan Turkiston viloyati yerlari va Qo‘qon xonligining bosib olingan shimoliy yerlari
C) Sarotov, Turkiston viloyatining janubiy qismi, Sirdaryoning o‘rta oqimidan quyi oqimiga qadar bo‘lgan hududlar
D) sobiq Semepalatinsk viloyati, Buxoro amirligining 1867-yilga qadar bosib olingan hududlari

113. (20147)Turkiston general-gubernatorligiga qarashli Yettisuv viloyatiga qaysi hududlar kirgan?
A) Buxoro amirligining shimoli va Qo‘qon xonligining 1867-yilgacha bosib olingan hududlari
B) 1865-yilda tashkil etilgan Turkiston viloyati yerlari va Qo‘qon xonligining bosib olingan shimoliy yerlari
C) Sarotov, To‘rg‘ay, Oqtepa va Turkiston viloyatining janubiy qimi, Sirdaryoning o‘rta oqimidan quyi oqimiga qadar bo‘lgan hududlar
D) #Semepalatinsk viloyatining Segriopol, Kopal, Olatavsk okrugi yerlari va sobiq Turkiston viloyatining bir qismi

114. (20147) Yer o‘lchov birligida *verst* qacha hududga teng bo‘lgan?
A) 1,6 km.kv. hududga
B) #1,066 km.kv. hududga
C) 0,66 km.kv. hududga
D) 0,9 km.kv. hududga

115. (20147)Turkiston general-gubernatori fon Kaufman nima sababdan mahalliy xalq orasida “yarim podsho” nomini olgan?
A) u davlatning bosh prokurori va bosh sudyasi bo‘lganligi uchun
B) #boshqa guberniya boshliqlaridan farqli ravishda unga o‘lkada siyosiy, harbiy va geosiyosiy huquqlarning berilishi
C) boshqa guberniyalardan bu o‘lkaning hududi va aholisi jihatidan yirikligi
D) Kaufmanning uyezd va volost hokimlaridan, eng quyi hokimliklar boshliqlarigacha ham o‘zi lavozimiga tayinlashi va ozod etishi

116. (20147)1873-yil tuzilgan Amudaryo bo‘limining markazi qaysi shahar bo‘lgan?
A) #Petro-Aleksandrovsk
B) Krasnavodsk
C) Nova-Aleksandrovsk
D) Qo‘ng‘irot

117. (20147)Turkiston o‘lkasida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati to‘liq amalga oshirilishi va hukmronligining mustahkam bo‘lishi uchun ...
A) harbiy zobitlarning xizmat muddati uzaytirildi
B) mahalliy xalq vakillaridan ishonchli odamlar ajratib olina boshlandi
C) mahalliy aholiga ayrim yengilliklar va imtiyozlar berildi
D) #istilochi amaldorlarga keng vakolatlar berildi

118. (20147)Turkiston general-gubernatorligining birinchi gubernatori kim?
A) #Kaufman
B) Chernyayev
C) Korolkov
D) Romanovskiy

119. (20147)Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga bosqinining ikkinchi davri nechanchi yillarni o‘z ichiga oladi?
A) 1847-1865-yillar
B) 1864-1873-yillar
C) #1865-1868-yillar
D) 1873-1879-yillar

120. (20147)Turkiston general-gubernatorligiga qarashli bo‘lgan viloyatlar va ularning markazlari bilan to‘g‘ri ko‘rsating.
1) Sirdaryo viloyati;
2) Yettisuv viloyati;
3) Farg‘ona viloyati;
4) Zarafshon (okrugi) viloyati;
5) Kaspiyorti viloyati.
a) Verniy;
b) Ashxabod;
c) Skobelev;
d) Toshkent;
e) Samarqand.
A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-e, 5-b
B) 1-c, 2-b, 3-d, 4-e, 5-a
C) #1-d, 2-a, 3-c, 4-e, 5-b
D) 1-d, 2-b, 3-c, 4-e, 5-a

121. (20148)1866-yilda Orenburg general-gubernatori N.Krijanovzkiy Buxoro amiri vakili bilan uchrashib amirga qanday talab qo’ygan edi?
A) bir hafta ichida 500 ming rubl tovon to‘lash
B) Rossiya foydasiga Buxoro amirligi chegaralarini o‘zgartirish
C) #10 kun ichida 100 ming rubl tovon to‘lash
D) O‘ratepa va Xo‘jandni Rossiya ixtiyoriga berish

122. (20148)Rossiya imperiyasi qo'shinlarining qaysi shaharga uyushtirgan hujumi natijasida 2 mingdan ko'proq aholi halok bo'lgan?
A) Xo'jand
B) #O'ratepa
C) Jizzax
D) Kattaqo'rg'on

123. (20148)Rossiya tomonidan 1864-1866-yillarda bosib olingan hududlarda …
A) #Sirdaryo viloyati tuzildi
B) Turkiston viloyati tuzildi
C) Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilindi
D) Zarafshon okrugi tuzildi

124. (20148)Buxoro amirligining chor Rossiyasi qo'shinlari bilan birinchi jangi qayerda bo'lib o'tdi?
A) Cho'ponota tepaligida
B) O'ratepa yaqinida
C) Zirabuloqda
D) #Erjar yaqinida

125. (20148)General F.Romanovskiyga Qo'qon xonligini egallash haqida ko'rsatma bergan Orenburg general-gubernatorini aniqlang.
A) #Krijanovskiy
B) Skobelyev
C) Perovskiy
D) Yerofeyev

126. (20148)Rus qo'shinlari Erjar yaqinidagi jangdan keyin qayerga hujum qiladi?
A) Buxoroga
B) #Xo'jandga
C) Jizzaxga
D) Samarqandga

127. (20149)Buxoro amiri Muzaffarga Rossiya mulki foydasiga Buxoro amirligi chegaralari o'zgartirilgan yangi loyihasini taklif qilgan generalni toping.
A) F.Romonovskiy
B) N.Krijanovskiy
C) #K.Kaufman
D) I.Abramov

128. (20149)Zirabuloq jangidan keyin Amir Muzaffar va fon Kaufman o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra ...
1) amirlik hududi uch baravar qisqardi;
2) amir urush boshlanishida aybdor deb topildi;
3) Rossiyaga 500 ming rubl tovon to'lanadigan bo'ldi;
4) Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan hududlar – Xo'jand, O'ratepa, Panjikent, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari Rossiya hukumati ixtiyoriga o'tdi;
5) amirlik Rossiya hukumatiga 100 ming rubl tovon to'laydigan bo'ldi;
6) Amir o'z ixtiyorida qolgan hududlarni boshqarishda general-gubernator ko'rsatmalariga rioya etishi belgilandi;
7) amir faoliyatini nazorat qiluvchi alohida vakil lavozimi ta'sis etildi;
8) amir Rossiya savdogarlarining amirlik hududida erkin savdo qilishiga sharoit yaratib berish va ularni himoya qilish majburiyatini oldi;
9) Rossiya savdogarlariga savdo agentliklarini ta'sis etishga ruxsat berildi;
10)belgilangan kontributsiya 20 yil ichida to'lanishi qayd etildi;
11)Rossiya savdogarlar tovarlaridan olinadigan bojning umumiy qiymati 2,5 foizdan oshmasligi belgilandi;
12)Rossiya savdogarlariga amirlik hududidan boshqa davlatlarga erkin o'tish huquqi berildi.
A) 1, 2, 3, 6, 8, 10, 11
B) 2, 3, 7, 9, 10, 12
C) #2, 3, 4, 6, 8, 9, 11, 12
D) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 8, 9, 11

129. (20149)I.F.Abramov boshchiligidagi qo‘shindan yengilgan Abdumalik to‘radastlab qayerga qochishga majbur bo‘lgan?
A) Hindistonga
B) Afg‘onistonga
C) Eronga
D) #Xiva xonligiga

130. (20149)Abdumalik to‘ra qachon va qayerda vafot etgan?
A) 1908-yil Afg‘onistonda
B) 1903-yil Makkada
C) #1909-yil Peshovarda
D) 1907-yil Eronda

131. (20149)“Rossiyadan hukumat ijozati bo‘lmagan, kim bo‘lishidan qat’i nazar, har xil kimsalarni Buxoro hukumati qabul qilmaydi”. Ushbu jumla qaysi hujjatda keltirilgan?
A) #1873-yilgi Buxoro-Rossiya shartnomasining 14-moddasida
B) 1868-yilgi Buxoro-Rossiya shartnomasining 1-moddasida
C) 1865-yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom”ning 9-moddasida
D) 1868-yilgi Buxoro-Rossiya shartnomasining 14-moddasida

132. (20149)Podsho hukumati qo‘shinlaridan yengilgan Abdumalik to‘raga Afg‘oniston hukmdori Sheralixonning yordam bera olmaganligi sababi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) Eron qo‘shinlarining Hirotga bostirib kirganligi va Sheralining eronliklarga qarshi urush bilan bandligi
B) #Sheralixonning Angliya bilan yaqinlashib kelayotgan urushda Rossiyaga tayanishni reja qilganligi
C) Buxoro amirligi va Afg‘oniston davlati o‘rtasidagi azaliy dushmanlik holatlari
D) Sheralixonning inglizlar bilan urushda mag‘lub bo‘lganligi va yordamga yaroqli qo‘shinning yo‘qligi

133. (20149)General Kaufman Urgut aholisi huzuriga taslim bo‘lish taklifi bilan kimni yuborgan edi?
A) Romanovskiyni
B) #Abramovni
C) Krijanovskiyni
D) Chernayevni

134. (20149)1868-yil Zarafshon okrugi tashkil qilingan bo‘lib, okrug boshlig‘i qilib kim tayinlangan edi?
A) K.P.Kaufman
B) M.Chernyayev
C) F.Romanovskiy
D) #I.F.Abramov

135. (20149)P.M.Lessar kim edi?
A) #Rossiya imperiyasining Boxorodagi birinchi diplomatik vakili
B) Amudaryo bo‘limi boshlig‘i
C) Xivaga qarshi yurishning Krasnavodsk harbiy bo‘limi boshlig‘i
D) Turkmaniston hududidagi harbiy harakatlar boshlig‘i

136. (20149)Zirabuloq jangida mag‘lubiyatga uchragan Buxoro amirligi Rossiya hukumatiga qancha miqdorda tovon to‘lash majburiyatini oldi?
A) 600 ming rubl
B) 1,5 mln. Rubl
C) #500 ming rubl
D) 2,2 mln. rubl

137. (20149)Buxoro amiri Muzaffarning katta o‘g‘li qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) Nasriddinbek
B) #Abdumalik
C) Abdulahad
D) Said Olim

138. (20149)Nechanchi yillarda Rossiya Angliya bilan Afg‘oniston va O‘rta Osiyodagi rus yerlari o‘rtasidagi chegara o‘tkazish to‘g‘risida muzokaralar olib bordi?
A) 1880-1885-yillarda
B) 1877-1879-yillarda
C) #1869-1870-yillarda
D) 1879-1880-yillarda

139. (201410)Xiva xonligiga qarshi yurish qaysi okruglardan boshlangan edi?
A) Kazalinsk, Toshkent, Orenburg, Semipalatinsk
B) Turkiston, Kazalinsk, Qizilravot, Semipalatinsk
C) Krasnavodsk, Aralsk, Verniy, Chorjo‘y
D) #Krasnavodsk, Mang‘ishloq, Turkiston, Orenburg

140. (201410)Pristan nima?
A) chet el savdogarlari savdo-sotiq olib boradigan, ulgurji savdo qilinadigan alohida savdo tashkiloti
B) harbiy dengiz yoki daryo floti
C) #daryolar sohilida qayiqlar to‘xtaydigan maxsus jihozlangan joy – bandargoh
D) harbiylar joylashtirilishi kerak bo‘lgan, turli xo‘jalik xonalaridan iborat bo‘lgan ko‘chma uy

141. (201410)1873-yil 12-avgustdagi Gandimiyon shartnomasining qaysi moddasida “Muhammad Rahimxon o‘zini Butun Rossiya imperatorining sodiq xodimi”, deb tan olgan?
A) 9-modda
B) 14-modda
C) 3-modda
D) #1-modda

142. (201410)Gandimiyon shartnomasiga ko‘ra ...
1) xonlik hududi uch baravar qisqardi;
2) Xiva xoni mustaqil ravishda tashqi aloqalar o‘rnatishdan mahrum bo‘ldi;
3) Rossiyaga 500 ming rubl tovon to‘lanadigan bo‘ldi;
4) Amudaryoning o‘ng sohili Rossiya hukumati ixtiyoriga o‘tdi;
5) xonlik Rossiya hukumatiga 2 mln. 200 ming rubl tovon to‘laydigan bo‘ldi;
6) Amudaryo bo‘ylab erkin harakatlanish uchun Rossiya kemalariga keng huquq berildi;
7) Amudaryoning chap sohili Rossiya hukumati ixtiyoriga o‘tdi;
8) Rossiyalik savdogarlar hamda ularning mollari uchun xon va mahalliy hokimlar javobgar bo‘ladigan bo‘ldi;
9) Rossiya savdogarlariga xonlik hududida boj to‘lovlarisiz savdo qilishga ruxsat berildi;
10)belgilangan kontributsiya 20 yil ichida to‘lanishi qayd etildi;
11)Rossiya savdogarlar tovarlaridan olinadigan bojning umumiy qiymati 2,5 foizdan oshmasligi belgilandi;
12)Amudaryoning chap qirg‘og‘ida ruslar o‘zlari uchun pristanlar qurish huquqiga ega bo‘ldi.
A) 1, 2, 3, 5, 6, 8, 9, 11
B) 2, 3, 5, 7, 8, 10, 11, 12
C) #1, 2, 4, 5, 6, 8, 9, 10, 12
D) 1, 4, 5, 6, 8, 11, 12

143. (201410)Qayerda bo‘lgan hujumda rus generali Veryovkin yarador bo‘lgan edi?
A) #Xivaga
B) Andijonga
C) Urgutga
D) Hazoraspga

144. (201410)Chor Rossiyasining Xiva xonligiga yurishi natijasida yo‘lga chiqqan rus qo‘shinlarining qanchasi Xivagacha yetib kelgan?
A) 13 ming
B) #7,5 ming
C) 9,6 ming
D) 11 ming

145. (201410)Gandimiyon shartnomasiga ko‘ra, Xiva xonligi necha yil muddatda Rossiyaga tovon to‘lashi kerak edi?

A) 15 yil
B) #20 yil
C) 10 yil
D) 25 yil

146. (201410)Rossiya imperiyasi Xiva xonligiga qarshi yurish uchun qancha vaqt tayyorgarlik ko‘rdi?
A) 3 yil
B) #5 yil
C) 7 yil
D) 2 yil

147. (201410)Ma’lumki, Xiva xonligiga qarshi rus qo‘shinlari to‘rt yo‘nalishda harakat boshlagan edi. Lekin sharoit taqozosi tufayli qaysi otryadlar orqaga qaytgan?
A) Kazalinsk, Orenburg
B) #Krasnavodsk, Mang‘ishloq
C) Turkiston, Kazalinsk
D) Krasnavodsk, Toshkent

148. (201410)Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga qarshi yurish uchun uzoq va puxta tayyorgarlik ko‘rishining asosiy sababi nima edi?
A) bu davrda Xiva xonligi harbiy-siyosiy va hududi jihatidan O‘rta Osiyodagi eng yirik davlat bo‘lganligi
B) Xivaga boriladigan yo‘llarning mashaqqatliligi hamda Xiva xonining Eron bilan harbiy ittifoqqa kirganligi
C) #xonlik tomonidan 1717-yil A.Bekovich-Cherkasskiy va 1839-yil V.Perovskiy boshchiligidagi ekspeditsiyaning barbod etilishi
D) Angliya hukumatining Xiva xonligiga bir necha marta elchilarini yuborib, o‘z harbiy mutaxassislarini taklif qilishi

149. (201410)Gandimiyon shartnomasiga ko‘ra Xiva xonligi hududi qanchaga qisqardi?
A) ikki baravar
B) 40 foiz
C) #uch baravar
D) 50 foiz

150. (201411)1879-yil Angliya Afg‘onistonning bir qismini bosib oladi va O‘rta Osiyoga yo‘l ochiladi. Shu bois rus hukumati turkmanlar yeriga kimni qo‘shin bilan yuboradi?
A) #I.Lazerev
B) P.M.Lessar
C) M.Skobelev
D) I.F.Abramov

151. (201411)Kaspiyorti viloyati tuzilgan (1880) yili …
1) Rossiya imperatori Aleksandr II hukmronligi tugadi;
2) Podsho hukumatining O‘rta Osiyoni bosib olishidagi yurishining to‘rtinchi bosqichi boshlandi;
3) Amudaryo bo‘limi tashkil etildi;
4) M.Skobelev qo'mondonligi ostidagi qo'shin uch oylik qamaldan so'ng Go’ktepa qal'asini qo'lga kiritdi;
5) Rossiya elchisining Tehrondagi kelishuvi bilan Buxoro amirligi va Eron o‘rtasidagi chegaralar belgilandi;
6) Turkiston general-gubernatori fon Kaufman hukmronligi tugadi.
A) 1, 6
B) 1, 2, 5
C) #2, 4
D) 2, 3, 5

152. (201411)Qo‘qon xoni Xudoyorxon qaysi voqeadan keyin Turkiston general-gubernatoridan panoh toppish maqsadida Toshkentga qochadi?
A) Abdurahmon Oftobachi va Iso Avliyolarning qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib ketishi
B) Po‘latxon qo‘zg‘olonining boshlanishi
C) #xonning ukasi va ikkinchi o‘g‘lining qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib ketishi
D) xonning o‘g‘li Nasriddinbekning qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib ketishi

153. (201411)Qaysi shaharda mustamlakachilarga qarshi harakat bir oy davom etgan?

A) Buhoro
B) O'ratepa
C) #Namangan
D) Xiva

154. (201411)Turkmaniston hududidagi harbiy harakatlarga kimlar rahbarlik qilgan?
A) Kaufman, Romanovskiy
B) Skobelev, Abramov, Lessar
C) Chernyayev, Skobelev, Kaufman
D) #Lazerev, Skobelev

155. (201411)Gandimiyon shartnomasiga ko'ra, Xiva xonligiga qancha tovon to'lash yuklandi?
A) 1 mln. 200 ming oltin
B) 500 ming rubl
C) #2 mln. 200 ming rubl
D) 3 mln. oltin

156. (201411)Qancha vaqt davom etgan jangdan so'ng Ko'ktepa qal'asi podsho hukumati qo'shinlari tomonidan bosib olindi?
A) 20 kun
B) #3 oy
C) 1 oy
D) 15 kun

157. (201411)General I.Lazerev boshchiligidagi rus qo'shini turkmanlar yeriga yuborilgan yili….
A) Kaspiyorti viloyati tuzildi
B) Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyati tuzildi
C) #Rossiyaning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishining uchinchi bosqichi tugadi
D) Turkmaniston va Eron o'rtasida hozirgi chegaralar belgilab olindi

158. (201411)Qo'qon xonligini bo'ysundirishdagi keng ko'lamli harakatlarga kim boshchilik qilgan?
A) I.Lazerev
B) #M.Skobelev
C) I.Abramov
D) N.Krijanovskiy

159. (201411)Qo'qon xonligidagi milliy-ozodlik harakatlari boshlig'i Po'latxonning asl ismi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) Mulla Hasan
B) Iso Avliyo
C) Abdurahmon
D) #Mulla Is'hoq

160. (201411)1875-yil 22-sentabrda Nasriddinbek va fon Kaufman o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra…
1) xon o'zini imperatorning sodiq quli deb tan oldi;
2) xon mustaqil ravishda tashqi aloqalar o'rnatishdan mahrum bo'ldi;
3) xon Rossiyaga 500 ming rubl tovon to'laydigan bo'ldi;
4) Sirdaryoning chap sohili Rossiya hukumati ixtiyoriga o'tdi;
5) xonlik Rossiya hukumatiga 2 mln. rubl tovon to'laydigan bo'ldi;
6) Sirdaryo bo'ylab erkin harakatlanish uchun Rossiya kemalariga keng huquq berildi;
7) Sirdaryoning o'ng sohilidagi yerlar – Namangan va Chust Rossiya hukumati ixtiyoriga o'tdi;
8) Xonlikning Rossiya imperiyasi hududiga o'tgan yerlarida Farg'ona viloyati tashkil etilishi belgilandi.
A) 1, 2, 3, 4, 6
B) 1, 3, 6, 7
C) #1, 2, 5, 7
D) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8

161. (201411)Xudoyorxon qachon va qayerda vafot etgan?
A) 1881-yil Makkada
B) #1882-yil Afg'onistonda

C) 1885-yil Peshovarda
D) 1886-yil Hindistonda

162. (201412)1877-yil Toshkent shahrida Duma tashkil qilinib, Duma ustidan rahbarlik qiluvchi shaxs kimning tavsiyasiga binoan harbiy vazir tomonidan tasdiqlar edi?
A) #Turkiston general-gubernatori
B) podshoning o‘zi
C) Duma a’zolari
D) ichki ishlar vaziri

163. (201412)“O‘lkada eng kichik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqaruv ham harbiy boshliqlar qo‘lida bo‘lgan”, degan xulosaga kelgan rus hukumati vakilini aniqlang.
A) #K.Palen
B) F.Girs
C) A.Vrevskiy
D) S.Duxovskoy

164. (201412)1865-yil 6-avgustdagi “Turkiston viloyatini idora qilish to’g’risidagi Muvaqqat Nizom”ga muvofiq, Turkiston o‘lkasida boshqaruv tizimi nima deb nomlangan?
A) harbiy gubernatorlar boshqaruvi
B) xalq boshqaruvi
C) diktatura boshqaruvi
D) #harbiy-xalq boshqaruvi

165. (201412)Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvidagi ma’muriy bo‘linishlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
A) #viloyat – uyezd – uchastka – volost
B) guberniya – viloyat – uchastka – uyezd
C) viloyat – volost – uchastka – uyezd
D) guberniya – volost – uyezd – ovul

166. (201412)Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvning dastlabki yillarida nima sababdan quyi boshqaruvni saqlab qoldi?
1) mustamlakachi ma’muriyatning quyi boshqaruv tizimini mutlaqo tushunmasligi;
2) dastlabki davrda mahalliy aholining ichki ishlari va an’analariga keskin aralashish salbiy oqibatlarga olib kelishini anglaganligi;
3) dastlabki davrda mahalliy aholi va quyi boshqaruv vakillarining rus tilini bilmasligi;
4) bu paytda bosib olingan hududlarda norozilik harakatlarining davom etayotganligi;
5) rus hukumatining o‘lka sharoitini to‘liq bilmasligi;
6) quyi boshqaruvda ishlashi mumkin bo‘lgan odamlarining bo‘lmaganligi.
A) 1, 2, 3
B) #2, 4, 5, 6
C) 1, 2, 3, 4, 5
D) 1, 3, 6

167. (201412)Ma’lumki, dastlabki yillarda podsho hukumati oldida quyi boshqaruvga mahalliy aholidan o‘ziga eng ishonchli bo‘lgan kishilarni topish muammosi paydo bo‘ldi. Bu muammoning hal etilishida qaysi tadbir podsho hukumatiga yordam berdi?
A) mahalliy amaldorlarga rus tilini o‘rgatadigan maxsus maktablarning tashkil qilinishi
B) mahalliy amaldorlarga soliq yig‘ish ishlarida ayrim erkinliklarning berilishi
C) #boshqaruvning dastlabki vaqtlarida ishlab chiqilgan saylov tizimi
D) qo‘zg‘olonlarni bostirish ishlarida jonbozlik ko‘rsatgan mahalliy amaldorlarning taqdirlanishi

168. (201412)1867-yilgi “Nizom” loyihasiga asosan o‘troq va chorvador aholi qanday shaklda hududiy birliklarga ajratilishi belgilandi?
A) #o‘troq aholi bir bosqichli tizim – oqsoqollikka, chorvador aholi ikki bosqichli tizim – volost va ovullarga birlashtirildi
B) o‘troq aholi ikki bosqichli tizim – volost va uchastkalarga, chorvador aholi bir bosqichli tizim ovullarga birlashtirildi

C) oʻtroq aholi uch bosqichli tizim – volost, uyezd, qishloqlarga, chorvador aholi bir bosqichli tizim – oqsoqolliklarga birlashtirildi
D)  oʻtroq aholi toʻrt bosqichli tizim – volost, uyezd, uchastka, ovullarga, chorvador aholi bir boshqichli tizim – oʻtovlarga birlashtirildi

169. (201412)1886-yil Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirilib, uning tarkibiga qaysi uyezdlar kiritilgan?
A) Oʻratepa, Buxoro, Miyonqol, Samarqand
B) #Xoʻjand, Jizzax, Kattaqoʻrgʻon, Samarqand
C) Samarqand, Karmana, Shahrisabz, Qarshi
D) Samarqand, Kattaqoʻrgʻon, Buxoro, Kogon

170. (201412)1886-yil 12-iyulda Aleksandr III tomonidan tasdiqlangan “Nizom”ning asosiy maqsadi nima edi?
A) Turkistondagi boshqaruv tartiblarini tubdan oʻzgartirish va yangi ma’muriy hududlarni tashkil etish
B) barcha boshqaruv organlariga saylov tizimini kiritish
C) #oʻlkadagi ma’muriy boshqaruvni mustahkamlash, yerdan foydalanish tartiblarini oʻzgartirish
D) diniy lavozimlarni tugatish, vaqf yerlarini davlat foydasiga musodara qilish

171. (201412)Turkiston general-gubernatorligida oʻzbek va boshqa mahalliy xalqlar 1897-yil ... ga, 1911-yil ... ga yetgan.
A) 1,7 mln., 5 mln.
B) 2 mln., 7 mln.
C) #5 mln., 6 mln.
D) 5 mln., 7 mln.

172. (201412)Turkiston general-gubernatorligiga koʻchirib keltirilgan yevropalik aholi 1897-yil ... kishini, 1911-yil ... kishini tashkil qilgan.
A) 107 ming, 397 ming
B) 120 ming, 500 ming
C) #197 ming, 400 ming
D) 80 ming, 360 ming

173. (201412)1877-yil Toshkentda xoʻjalik boshqaruvi Dumaga oʻtgan boʻlib, unda shaharni Yangi va Eski qismidan nechta deputat ishtirok etgan?
A) Yangi shahardan 21 ta, Eski shahardan 48 ta
B) Yangi shahardan 68 ta, Eski shahardan 41 ta
C) Yangi shahardan 39 ta, Eski shahardan 80 ta
D) #Yangi shahardan 48 ta, Eski shahardan 21 ta

174. (201412)1886-yilgi “Nizom”ga muvofiq, Turkiston general-gubenatorligining ma’muriy boshqaruvida qanday yangi idora tashkil etildi?
A) Viloyat mahkamasi boshligʻi Kengashi
B) Amudaryo boʻlimi
C) #Turkiston general-gubernatori Kengashi
D) Turkiston general-gubernatorligi shtabi

175. (201412)Uyezd tarkibiga kirgan bir necha qishloq yoki ovullardan iborat hududiy boʻlinma nima deb atalgan?
A) pristav
B) #volost
C) tuman
D) uchastka

176. (201412)Rossiya imperiyasi Oʻrta Osiyoni bosib olgandan keyin, boshqaruv ...
A) #toʻliq harbiylar qoʻliga oʻtdi
B) demokratlashtirildi
C) mahalliy harbiy hokimlar va oqsoqollar qoʻlida qoldirildi hamda ularning vakolati cheklandi
D) oqsoqollar kengashi, ruhoniylar bilan bir paytda harbiylar qoʻliga oʻtdi

177. (201412)1886-yilgi “Nizom”ga koʻra, Qurama uyezdi qanday nomga o’zgartirildi?
A) Amudaryo boʻlimi
B) Oqqoʻrgʻon uyezdi
C) #Toshkent uyezdi
D) Sirdaryo viloyati

178. (201412)Turkiston general-gubernatorligining yer maydoni qancha boʻlgan?
A) #1,7 mln. kv. km.
B) 5,2 mln. kv. km.
C) 2,5 mln. kv. km.
D) 1,9 mln. kv. km.

179. (201412)Toshkentda nechanchi yil “Shahar nizomi” joriy etilgan?
A) #1877-yil
B) 1866-yil
C) 1874-yil
D) 1886-yil

180. (201412)XIX asr oxirgi choragida Turkiston general-gubernatorligining aholisi qancha boʻlgan?
A) 3,5 mln.
B) #5,2 mln.
C) 7,1 mln.
D) 4,5 mln.

181. (201412)Turkiston general-gubernatori Kengashining doimiy a’zolari qaysi javobda toʻgʻri berilgan?
1) viloyat harbiy gubernatorlari;
2) general-gubernatorlik razvedkasi;
3) general-gubernator devoni boshqaruvchisi;
4) Turkiston harbiy okrugi shtabi boshligʻi;
5) Imperator siyosiy agentligi;
6) Amudaryo boʻlimi.
A) 1, 3, 6
B) #1, 3, 4
C) 2, 5, 6
D) 1, 2, 4, 5

182. (201412)1908-1910-yillarda podsho topshirigʻi bilan Turkiston oʻlkasini taftish qilgan shaxsni aniqlang.
A) S.Duxovskiy
B) F.Girs
C) A.Vrevskiy
D) #K.Palen

183. (201412) “Turkiston oʻlkasi boshqa oʻlkalarga nisbatan tarixiy oʻtmishi, etnografik xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida e’tibor berilishini talab qiladi”. Ushbu fikrlar kimga tegishli?
A) K.Palen
B) F.Girsga
C) #S.Duxovskoyga
D) A.Vrevskiyga

184. (201412)1898-1901-yillarda Turkiston general-gubernatori kim boʻlgan?
A) N.Korolkov
B) Fon Kaufman
C) #S.Duxovskiy
D) G.Rozenbax

185. (201413)Koʻchirish siyosati natijasida Rossiyadan kelgan dehqonlarning birinchi manzilgohi qayerda tashkil etildi?
A) Chimkentda
B) Toshkentda
C) #Avliyootada

D) Farg‘onada

186. (201413)Rossiya imperiyasining ko‘chirib keltirish siyosati nima maqsadda amalga oshirildi?
A) #mustamlaka tuzumini mustahkamlash maqsadida
B) yangi ishchi kuchini tashkil qilish maqsadida
C) rus aholisining turmush tarzini yaxshilash maqsadida
D) bo‘shab yotgan yerlarni o‘zlashtirish maqsadida

187. (201413)Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi mustamlakachilik siyosati imperiyaning qaysi mustamlakalaridagi siyosatdek bo‘lgan?
A) Boltiq dengizi bo‘yi hududlari
B) Qora dengiz bo‘yi hududlari
C) Vladivostok va Saxalin
D) #Sibir va Kavkaz

188. (201413)1875-1890-yillar oralig‘ida Turkistonga qancha rus oilasi ko‘chirildi?
A) 1100
B) 1500
C) #1300
D) 1900

189. (201413)Nima sababdan XIX asr so‘nggi choragida Turkistondagi masjid va madrasalarning moddiy ahvoli yomonlashdi?
A) diniy ilmlarni o‘rganishga e’tiborning susayganligi
B) jadid maktablarining tashkil etilishi va mablag‘larning yangi maktablarga sarf etilishi
C) diniy ruhoniylarning ta’qib ostiga olinishi, qozikalon lavozimining tugatilishi
D) #vaqf yerlari nazoratining mustamlakachi hukumat qo‘liga o‘tishi

190. (201413)Turkiston yerlari, o‘rmonlari va yer osti qazilma boyliklari nechanchi yilda Rossiya imperiyasi mulki deb e’lon qilindi?
A) 1880-yil
B) 1867-yil
C) #1886-yil
D) 1876-yil

191. (201413)Turkiston o‘lkasiga 1891-1892-yillarda Rossiyadan ko‘chib kelgan dehqonlarning nechta manzilgohi vujudga keldi?
A) #25 ta
B) 19 ta
C) 13 ta
D) 21 ta

192. (201413)Avliyootada Rossiyadan ko‘chib kelganlarning dastlabki manzilgoni nechanchi yilda vujudga kelgan?
A) 1870-yil
B) #1875-yil
C) 1881-yil
D) 1886-yil

193. (201413)1875-1890-yillarda Turkiston o‘lkasiga Rossiyadan ko‘chib kelgan oilalar nechta qishloqni tashkil qildi?
A) 13 ta
B) #19 ta
C) 9 ta
D) 25 ta

194. (201413)1892-yildan boshlab…
A) Turkiston general-gubernatorligi Devonining sudlov bo‘limi ish boshladi
B) Turkistonda temiryo‘l qurilishi ishlari tugallandi

C) #Rossiyadan oʻzboshimchalik bilan koʻchib kelganlar ham maʼmuriyat ruxsati bilan koʻchirilganlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanishi eʼlon qilindi
D) Turkistondagi barcha qozikalon lavozimlari tugatilib, barcha qozilarning huquqi tenglashtirildi

195. (201413)1886-yilgi "Nizom"ga muvofiq, Rossiyadan Turkistonga koʻchirilgan aholiga qahday imtiyozlar berilgan?
1) maʼmuriyat cherkov va maktab qurish uchun mablagʻ ajratgan;
2) sanoat korxonasida ish bilan taʼminlash;
3) 150 rubl miqdorida nafaqa belgilangan;
4) 5 yil davomida soliqlardan ozod etilgan;
5) 10 yil davomida soliqlarning yarmini toʻlagan;
6) koʻchib kelganlar mablagʻ, turar joy, yer maydonlari, kreditlar bilan taʼminlangan;
7) uy qurilishi uchun dastlab 100 rubldan mablagʻ berilgan;
8) barchasi davlat lavozimlariga jalb qilingan
A) 1, 4, 7
B) 3, 4, 5, 8
C) #1, 4, 6, 7
D) 3, 4, 6

196. (201413)Turkistonda mustamlakachi hukumat qaysi yoʻl bilan din peshvolari, ulamo va diniy muassasalarga zarba berdi?
A) #vaqf mulki nazoratini oʻz qoʻllariga olish orqali
B) qozikalon va shayxulislom lavozimini tugatish orqali
C) yangi maktablar va cherkovlar qurish orqali
D) diniy ulamolarning yerlari va mol-mulkini musodara qilish orqali

197. (201413)XIX asr soʻngi choragida Oʻrta Osiyo shaharlari ikki qismdan iborat boʻlib, uning yangi shahar qismida nimalar joylashgan edi?
A) masjid, madrasa, xonaqoh, maʼmuriyat
B) #maʼmuriyat, harbiy qismlar yashaydigan va koʻchib kelganlar yashaydigan joylar
C) masjid, madrasa, maʼmuriyat, koʻchib kelganlar yashaydigan joylar
D) mahalliy aholi bilan birga koʻchib kelganlar yashaydigan joylar, jadid maktablari

198. (201413)Toshkent shahrida qaysi obyekt shaharni ikki qismga ajratib turgan?
A) maʼmuriyat idorasi
B) eski shahar devorlari
C) #Boʻzsuv anhori
D) Kaykovus arigʻi

199. (201414)Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgunga qadar sud va qozilik tizimi qanday boʻlgan?
1) sud ishlarini qozilar amalga oshirgan;
2) har bir qishloqning oʻz qozisi boʻlgan va oʻz qishlogʻi qozisiga shikoyat bilan murojaat qilgan;
3) qozilar davlat boshligʻining shaxsan oʻzi tomonidan lavozimga tayinlangan;
4) qozilar shariat qonunlaridan kelib chiqib, qarorlar chiqarishgan;
5) qozilar qatʼiy belgilangasn uchastkaga ega boʻlishmagan, har bir daʼvogar oʻzi ishongan qoziga murojaat qilgan;
6) qozikalonlarning huquqi deyarli qozilarniki bilan teng boʻlgan;
7) qozilar davlatdan maosh olishmagan;
8) qozilar xalq tomonidan 2,5 yil muddatga saylab qoʻyilgan;
9) qozi sudlarining vakolatiga daʼvo hajmi 100 tillodan oshmaydigan jinoyat ishlari kirgan;
10)qozilar sud majlisi boshlanishidan oldin tomonlarga kelishib olishni taklif qilgan.
A) 1, 2, 3, 5, 9
B) 1, 4, 6, 7, 9
C) #1, 4, 5, 7,10
D) 1, 3, 5, 8, 10

200. (201414)Turkistonda mustamlakachi hukumat tomonidan qozi va biy sudlari tugatilishi maqsad qilib olingan boʻlib, ular tugatilgunga qadar qanday ishlarni koʻrishi belgilangan edi?
A) diniy munozalar, oqsoqollar orasidagi bahs-munozaralar
B) xon sulolalari orasidagi kelishmovchiliklar

C) barcha ma'muriy ishlar
D) #oilaviy mojarolar, kishilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar

201. (201414)O'rta Osiyoda Rossiya imperiyasi hukmronligi o'rnatilgach, sud ishlariga o'zlashtirishlar kiritildi. Shunga muvofiq, hududdagi qozilarning soni nimaga qarab belgilanadigan bo'ldi?
A) sodir bo'ladigan notinchliklarga qarab
B) hududda yashaydigan millat soniga qarab
C) qishloqlar soniga qarab
D) #aholi soniga qarab

202. (201414)1886-yilgi "Nizom" Turkiston o'lkasi sud tizimiga qanday o'zgarishlar kiritdi?
1) uyezd sudlari bekor qilindi va ularning o'rniga shahar va zemstvo boshliqlari tomonidan tayinlanadigan uchastka mirovoy sudlari tuzildi;
2) viloyat sudlari tugatildi va ularning o'rniga Toshkent sud palatasi tuzildi;
3) viloyat boshqaruvining sud bo'limlari viloyat sudlari bilan almashtirildi;
4) okrug sudlari joriy etildi;
5) sud tergovchilari, viloyat prokurori va ularning yordamchisi lavozimlari joriy etildi;
6) qozilar sudi saqlanib qoldi;
A) 2, 4, 6
B) 2, 5, 6
C) #1, 3, 5, 6
D) 1, 2, 3, 4

203. (201410-14)Quyidagi atamalarni ularning izohi bilan to'g'ri joylashtiring.
1) kontributsiya;
2) pristan;
3) volost;
4) uyezd;
5) apilyatsiya;
a) shikoyat, norozilik bildirish;
b) tumanlarga teng hududiy bo'linma;
c) bir necha qishloqlardan iborat hudud;
d) mag'lub davlatning g'olib davlatga to'lovi;
e) daryo sohilida qayiqlar to'xtaydigan maxsus joy.
A) 1-e, 2-d, 3-c, 4-b, 5-a
B) 1-d, 2-c, 3-e, 4-b, 5-a
C) #1-d, 2-e, 3-c, 4-b, 5-a
D) 1-a, 2-e, 3-c, 4-b, 5-d

204. (201414)Turkistonda sud tergovchilari, viloyat prokurorlari va ularning yordamchilari lavozimi nechanchi yilda joriy qilingan?
A) 1877-yil
B) #1886-yil
C) 1867-yil
D) 1865-yil

205. (201414)Toshkent sud palatasi nechanchi yilda tuzilgan?
A) 1890-yil
B) 1877-yil
C) #1898-yil
D) 1886-yil

206. (201414)Nechanchi yil Toshkentda maxsus muassasa – mahkama joriy etilgan?
A) 1874-yil
B) #1866-yil
C) 1871-yil
D) 1879-yil

207. (201414) Turkiston o'lkasida 1000 rubldan oshmaydigan jinoyat va fuqarolik iko'rib chiqish ishi qaysi sud bosqichining vakolatiga kirgan?

A) #xalq sudlari qurultoyi
B) xalq sudlari favqulodda qurultoyi
C) qozi va biy sudlari
D) general-gubernatorlik Devonining sudlov bo‘limi

208. (201414)Turkiston general-gubernatorligi Devonining sudlov bo‘limi nechanchi yil tashkil qilindi?
A) #1867-yil
B) 1881-yil
C) 1886-yil
D) 1898-yil

209. (201414)Mustamlaka davrida Turkistonda o‘zgartirishlar kiritilgan sud bosqichlarini aniqlang.
A) biy sudlari, qozi sudlari, a’lam sudlari, xalq sudyalari qurultoyi
B) #qozi sudlari, xalq sudyalari qurultoyi, xalq sudyalari favqulodda qurultoyi
C) xalq sudyalari favqulodda qurultoyi, xalq sudyalari komissarligi, mirovoy sudlar
D) zemstvo sudlari, xalq sudyalari qurultoyi, biy va qozi sudlari

210. (201414)Turkiston o‘lkasida turli volostlar va uyezdlar aholisi o‘rtasida yuzaga kelgan bahsli ishlarni hal qilish ishi qaysi sud bosqichining vakolatiga kirgan?
A) xalq sudlari qurultoyi
B) #xalq sudlari favqulodda qurultoyi
C) qozi va biy sudlari
D) general-gubernatorlik Devonining sudlov bo‘limi

211. (201414)Turkiston o‘lkasida 100 rubldan oshmaydigan jinoyat va fuqarolik iko’rib chiqish ishi qaysi sud bosqichining vakolatiga kirgan?
A) xalq sudlari qurultoyi
B) xalq sudlari favqulodda qurultoyi
C) #qozi sudlari
D) general-gubernatorlik Devonining sudlov bo‘limi

212. (201414)Toshkent sud palatasi qaysi organga bo‘ysunar edi?
A) harbiy vazirga
B) #hukumat Senatiga
C) harbiy sud komissiyasiga
D) Turkiston general-gubernatorligiga

213. (201414)Rossiya imperiyasi nima maqsadda Toshkentda o‘ziga xos muassasa – mahkama joriy qilindi?
A) qo‘zg‘olon ko‘targan aholini rus huquqi bo‘yicha jazolash
B) ko‘chirib keltirilgan rus aholisini ish bilan ta’minlash
C) #imperiyaning mahalliy aholiga ta’sirini kuchaytirish
D) yevropalik aholi manfaatlarini himoya qilish

214. (201415)O‘rta Osiyoda qurilgan birinchi temiryo‘l qaysi hududlarni bog‘lagan?
A) Toshkent – Orenburg
B) Samarqand – Andijon
C) #Krasnavodsk – Qizilarvat
D) Ashxabod – Toshkent

215. (201415)Turkistonda “Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo‘riqlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Nizom” nechanchi yilda e’lon qilindi?
A) 1886-yil
B) 1892-yil
C) 1916-yil
D) #1881-yil

216. (201415)Imperatorning maxfiy maslahatchisi F. Girs Turkiston o‘lkasini nechanchi yilda tekshirgan?
A) 1908-1910-yillar
B) #1882-1884-yillar
C) 1884-1886-yillar

D) 1886-1892-yillar

217. (201415)Turkiston o‘lkasi qaysi yillarda “kuchaytirilgan qo‘riqlov” va “favqulodda qo‘riqlov” holatida bo‘ldi?
A) 1880-1989-yillar
B) 1878-1900-yillar
C) 1890-1917-yillar
D) #1892-1916-yillar

218. (201415)Rossiya imperiyasi harbiy qurolli kuchlarining asosiy bazalari qayerda joylashgan edi?
A) Sibirda
B) Ukrainada
C) Boltiqbo‘yida
D) #Kavkazda

219. (201415)Ispravniklar–bu ...
A) davlat xavfsizligini saqlovchi tashkilot
B) uyezd boshqaruvchisi
C) #uyezd politsiyasi boshlig‘i
D) rus posyolkalari boshliqlari

220. (201415)Samarqandga dastlabki temiryo‘l nechanchi yil qurib kelindi?
A) 1880-yil
B) 1881-yil
C) 1885-yil
D) #1888-yil

221. (201415)O‘rta Osiyoda temiryo‘llar qurilishida qanday maqsadlar ko’zlangan edi?
A) o‘lkadagi paxtani olib ketish maqsadi
B) o‘lkaga rus tovarlarini olib kelish maqsadi
C) faqat aholini ko‘chirish maqsadi
D) #harbiy-strategik maqsad

222. (201415)Temiryo‘l Toshkent orqali Andijongacha kelgan yilni aniqlang.
A) #1899-yil
B) 1888-yil
C) 1885-yil
D) 1905-yil

223. (201415)Politsiya so‘zi nemischa so‘z bo‘lib, u qanday ma’noni anglatadi?
A) harbiy intizom
B) shahar boshlig‘i
C) #ma’muriyat
D) nazorat guruhi

224. (201415)Turkiston aholisini armiyaga butkul chaqirmaslik siyosatini yoqlab chiqqan rus amaldorini aniqlang.
A) graf Palen
B) polkovnik Putinsev
C) general Duxovskiy
D) #maxfiy maslahatchi Girs

225. (201415)Orenburgda Toshkentga qadar temiryo‘l qurib kelingan yilni aniqlang.
A) 1899-yil
B) #1905-yil
C) 1901-yil
D) 1898-yil

226. (201415)Turkistonda “Davlat tartiboti va jamoat osoyishtaligini qo‘riqlashga qaratilgan choratadbirlar to‘g‘risidagi Nizom” e’lon qilingan bo‘lib, unga muvofiq, ...

A) Turkistonda 1916-yilga qadar kuchaytirilgan qo‘riqlov holati e’lon qilindi
B) general-gubernatorga eng quyi mahalliy hokimlarning ham lavozimiga tasdiqlashi vakolati berildi
C) #general-gubernator o‘lkada favqulodda qo‘riqlash holatini o‘z ixtiyori bilan joriy etish huquqiga ega bo‘ldi
D) Turkiston aholisi armiyaga jalb qilinmaydigan bo‘ldi

227. (201415)Turkiston o‘lkasini tekshirgan F.Girsning ma’lumotiga ko‘ra, o‘lkada ... kishi yashagan, shundan ... tasi erkak kishi bo‘lgan?
A) 1 mln. 200 ming, 240 ming
B) #2 mln. 404 ming, 1 mln. 200 ming
C) 2 mln. 200 ming, 1 mln. 400 ming
D) 1 mln. 404 ming, 420 ming

228. (201415)Turkiston o‘lkasida podsho hukumati harbiy siyosatining asosini nima tashkil etgan?
A) milliy-ozodlik kurashlarini qattiqqo‘llik bilan bostirish
B) temiryo‘llar qurib, u orqali harbiylarni o‘lkaga osonlik bilan ko‘chirib joylashtirish
C) #mahalliy aholini harbiy xizmatdan ozod qilish, jangovar an’analarni tag-tomiri bilan tugatish
D) sekin-asta qozi va biy sudlarini tugatib, mirovoy sudlar tashkil qilish

229. (201416)Turkistonda chorva mahsulotlarining kamayishiga olib kelgan omilni aniqlang.
A) chorva mahsulotlari narxining pasayishi
B) o‘lkada g‘alla ekinlarining ko‘payishi natijasida yaylovlarning qisqarishi
C) vabo kasalligining avj olib ketishi
D) #chorvachilik yaylovlarining paxta maydoniga aylantirilishi

230. (201416) XIX asr oxirilarida Turkistonda 175 ta sanoat korxonalari ishga tushurilgan bo’lib unda qancha ishchi ishlagan?
A) 25,000
B) #20,000
C) 15,000
D) 10,000

231. (201416)Sirdaryo magistral kanalining qurilish ishlari qaysi yillarda amalga oshirilgan?
A) 1909-1911-yillar
B) 1908-1910-yillar
C) 1899-1900-yillar
D) #1911-1913-yillar

232. (201416)Mustamlakachi hukumat uchun paxta Turkiston o‘lkasida ...... dan keyingi o‘rinda turuvchi yuqori daromadli soha bo‘lgan.
A) g‘alla va teri
B) #neft va oltin
C) temir
D) chorva mahsulotlari

233. (201416) XIX asr oxirilarida Turkistonda 175 ta sanoat korxonalari ishga tushurilgan bo’lib unda ishchilarning ish kuni qanchani tashkil etgan?
A) 12 soatni
B) 14 soatni
C) #16 soatni
D) 18 soatni

234. (201416)Qachondan Turkistonda yangi paxta navi (Amerika navi)ni etishtirish boshlandi?
A) 1881-yil
B) 1879-yil
C) #1884-yil
D) 1874-yil

235. (201416)Qaysi yillari Turkistonda 175 ta sanoat korxonalari ishga tushurilgan?
A) 1881-1900-yillarda

B) 1857-1880-yillarda
C) #1867-18900-yillarda
D) 1874-18911-yillarda

236. (201417)Yetimxon qo‘zg‘oloni nechanchi yilda bo‘ldi?
A) 1880-yil
B) #1878-yil
C) 1879-yil
D) 1896-yil

237. (201417)Rahmonqulihoji va Mirkarimboy boshchiligida norozilik harakati boshlangan yilni aniqlang.
A) #1880-yil noyabrida
B) 1885-yil martida
C) 1882-yil oktyabrida
D) 1896-yil dekabrida

238. (201417)Darvishxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon qachon, qayerda sodir bo‘lgan edi?
A) 1882-yil Marg‘ilonda
B) 1880-yil O‘ratepada
C) #1885-yil Andijonda
D) 1882-yil Namanganda

239. (201417)1878-yil qayerda qo‘zg‘olon ko‘tarildi?
A) #Mingtepada
B) Namanganda
C) Naymanchida
D) Qo‘qonda

240. (201417)1896-yili Turkistonning qaysi volostida mingboshilar saylovida qo‘zg‘olon boshlanib ketdi?
A) Mingtepa
B) Marg‘ilon
C) #Oqsuv-Shahrixon
D) Namangan

241. (201417)Rossiya imperiyasi Turkistonni mustamlakaga aylantirgach, kapitalistik munosabatlarga yo‘l ochila boshladi va bu ...
A) xalqning moddiy ahvolini yaxshiladi
B) #korxona xo‘jayinlari, savdogarlar va amaldorlarning boyishini ta’minladi
C) mahalliy banklarning kasodga uchrashiga olib keldi
D) qishloq xo‘jaligining inqirozga uchrashini ta’minladi

242. (201417)1879-yilda mahalliy aholi Farg’ona viloyati bashqarmasi oldida ochiqcha nonozilik ko’rsatib Marg’ilon uyezdida soliq to’lash noqonuniy tusga kirganligiga qarshi chiqishdi. Qo’zg’alon kuchayib ketishini sezgan podsho hukumati maxsus komissiya tuzib, vaziyatni o‘rgangan. Ushbu komissiya xulosasiga ko‘ra norozilikka nima sabab bo‘lgan?
A) viloyatga rus aholisining ko‘p miqdorda ko‘chirilishi
B) xonlikning tugatilishi va milliy an’analarning cheklanishi
C) #viloyatda paxta ekishning keng ko‘lamda avj oldirilishi natijasida boshqa ekinlarning kamayib ketishi
D) vaqf yerlarining davlat tasarrufiga o‘tkazilishi

243. (201417)Mingtepa hozirgi qaysi tumanga to‘g‘ri keladi?
A) Kosonsoy
B) Qo‘rg‘ontepa
C) Paxtachi
D) #Marhamat

244. (201417)Qaysi hududda Rahmonqulihoji va Mirkarimboy boshchiligidagi aholi mahkamaga borib, adolatsiz soliqlarni bekor qilishini so‘rab norozilik bildirgan edi?
A) Jizzaxda
B) #Xo‘jand va O‘ratepada

C) Andijonda
D) Mingtepa va Namanganda

245. (201417)1896-yil Namangan uyezdining qaysi qishloqlarida mingboshilar saylovi qo‘zg‘olonga aylanib ketdi?
A) Qutchi, Shahrixon, Ketmontepa
B) Ko‘gart, Tojikqishloq, Qutchi
C) Qo‘yli, Olmos, Chortoq
D) #Naymanchi, Langarbob, Ko‘hna mozor

246. (201417)Nechanchi yildan boshlab Turkistonda oddiy fuqarolarni ma’muriyatga qarshilik ko‘rsatgan taqdirda, bevosita harbiy dala sudlariga bera boshlandi?
A) #1892-yil
B) 1890-yil
C) 1898-yil
D) 1889-yil

247. (201417)1885-yilda Turkiston o‘lkasining qaysi hududida qo‘zg‘olonlar qaytadan avj olib ketdi?
A) Samarqand uyezdi
B) Xorazm vohasi
C) Zarafshon vohasi
D) #Farg‘ona vodiysi

248. (201418) “………… Olomonda o‘qotar yoki boshqacha qurol ham yo‘q bo‘lib, ular chamasi 400 kishi edi”, ushbu ma’lumotlarda nechanchi yil voqealari tasvirlangan?
A) 1880-yil 2-yanvar voqealari
B) 1898-yil 20-iyun voqealari
C) 1878-yil 12-mart voqealari
D) #1892-yil 24-iyun voqealari

249. (201418) “Toshotar voqeasi” deb nom olgan qo‘zg‘olon qayerda bo‘lgan edi?
A) Jizzaxda
B) #Toshkentda
C) Andijonda
D) Namanganda

250. (201418)Toshkentga 1892-yilgi vaboning kirib kelishi qaysi hududda paydo bo‘lgan kasallik bilan bog‘liq?
A) Jizzax
B) Samarqand
C) Tojikiston
D) #Afg‘oniston

251. (201418)Toshkentda “vabo isyoni”ning boshlanishiga nimalar sabab bo‘lgan edi?
1) mahalliy aholiga nisbatan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan mustamlakachilik jabr-zulmining tobora kuchayib borayotganligi;
2) vaqf yerlarining davlat tasarrufiga o‘tkazilishi;
3) xalq ommasining og‘ir ahvoli, hunarmand kosiblar va mardikorlarning ayovsiz ishlatilishi;
4) iste’mol mahsulotlari narxining oshib borishi, soliqlarning ko‘pligi;
5) Toshkentning ikki qismga bo‘linishi;
6) amaldorlarning o‘z mansabini suiiste’mol qilishi, poraxo‘rlikning avj olishi.
A) 1, 2, 5, 6
B) 1, 2, 3
C) #1, 3, 4, 6
D) 1, 2, 5

252. (201418)Toshkentda “vabo isyoni” boshlanishi arafasida Eski shahar oqsoqoli kim edi?
A) Muhammad Yoqub
B) Umarxo‘ja Inog‘omov
C) #Inog‘omxo‘ja Umriyoxo‘jayev

D) Hakimxo'ja maxsum

253. (201418)1892-yilgi Toshkent qo'zg'oloni vaqtida shahar boshlig'i kim edi?
A) A.Vrevskiy
B) #S.Putinsev
C) Konshevskiy
D) V.Poltaratskiy

254. (201418)Turkiston o'lkasida "Harbiy holatda deb e'lon qilingan joylar haqida Qoida" qachon kuchga kirgan?
A) 1881-yil 24-noyabrda
B) 1886-yil 19-mayda
C) #1892-yil 18-iyunda
D) 1898-yil 21-aprelda

255. (201418)1892-yil Toshkentda bo'lgan qo'zg'olon paytida norozilik bildirgan aholidan qo'rqib, shahar ma'muri huzuriga qochgan Eski shahar oqsoqolini aniqlang.
A) #Muhammad Yoqub
B) Umarxo'ja Inog'omov
C) Inog'omxo'ja Umriyoxo'jayev
D) Hakimxo'ja maxsum

256. (201418)Qaysi qo'zg'olondan keyin Turkiston hukumati politsiya shtatini ko'paytirish va jazo vakolatlarini yanada kengaytirish haqida Sankt-Peterburgga murojaat qilgan edi?
A) 1898-yilgi Dukchi eshon qo'zg'oloni
B) 1885-yilgi Andijon qo'zg'oloni
C) 1896-yilgi Namangan qo'zg'oloni
D) #1892-yilgi "Vabo isyoni"

257. (201418)Toshkentda "vabo isyoni" boshlanishi arafasida shahar ma'muriyati nechta qabristonni yopib qo'ydi?
A) 8 ta
B) 2 ta
C) #12 ta
D) 14 ta

258. (201418)1892-yildan keyin Turkistonda "kuchli muhofazada" deb e'lon qilingan hududlarda nimalar taqiqlab qo'yildi?
A) #majlis-yig'inlar, savdo-sanoat korxonalarining ishlashi, matbuot organlari
B) kech soat oltidan keyin ko'chalarga chiqish, ish paytida bekor yurish, ko'cha tomoshalari
C) bozorlar, savdo-sotiq, kech soat 7 dan keyin ko'chaga chiqish
D) biror-bir inshoot qurish, choyxonalar, aholining bir-birining uyiga bordi-keldisi

259. (201418)1892-yildan keyin Turkistonda "favqulodda muhofazada" deb e'lon qilingan hududlarda butun hokimiyat ...
A) Harbiy vazir va uning yordamchilari qo'liga o'tdi
B) #general-gubernator yoki u tayinlagan bosh noib qo'liga o'tdi
C) Turkiston harbiy okrugi qo'liga o'tdi
D) imperator tayinlagan maxsus harbiy-gubernator qo'liga o'tdi

260. (201419)Muhammad Alining ota kasbi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) kulolchilik
B) duradgorlik
C) zargarlik
D) #dukchilik

261. (201419)1898-yilgi qo'zg'olon qaysi qishloqda boshlandi?
A) Qutchi
B) Shahrixon
C) #Tojikqishloq

D) Marg‘ilon

262. (201419)Muhammad Ali eshon yashagan yillarni aniqlang.
A) 1856-1898-yillar
B) #1846-1898-yillar
C) 1850-1898-yillar
D) 1842-1898-yillar

263. (201419)Dukchi eshon qo‘zg‘oloni ikkiga bo‘linib harakat qilgan va ikkinchi guruhga kim rahbarlik qilgan?
A) G‘oyibnazar
B) #Ziyovuddin Maxsum
C) Mahammad Ali
D) Muhammad Yoqub

264. (201419)Andijon qo‘zg‘olonining boshlanishiga nimalar sabab bo‘lgan edi?
1) 1891-yil Farg‘ona vodiysiga ko‘plab rossiyaliklarning ko‘chirilishi;
2) Rus hukumatining Rossiya hududidagi soliqlarni ham joriy qilishi;
3) vaqf yerlarining tugatilib, davlat yerlariga aylantirilishi;
4) mahalliy erkaklarning harbiy xizmatdan ozod qilinishi;
5) vodiyda asosan paxta ekilishi natijasida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin oshishi;
6) masjidlarning yopib qo‘yilishi.
A) 1, 4, 6
B) 2, 4, 5
C) 3, 4, 6
D) #1, 3, 5

265. (201419)Quyidagi atamalarni ularning mazmuni bilan muvofiq joylashtiring.
1) eshon;
2) dukchi;
3) kazarma;
4) pristav
a) aholi yashaydigan joy nazoratchisi;
b) harbiy qism joylashgan maxsus bino;
c) charxning ip o‘raladigan moslamasini yasovchi;
d) dindorlar orasida obro‘ qozongan diniy unvon.
A) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d
B) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a
C) #1-d, 2-c, 3-b, 4-a
D) 1-d, 2-c, 3-a, 4-b

266. (201419)Podsho Nikolay II kimni 1898-yilda vaqtinchalik Turkiston general-gubernatori etib tayinladi?
A) Veryovkinni
B) #Korolkovni
C) Kuropatkinni
D) Gippiusni

267. (201419)Turkiston o‘lkasida yuqori nufuzli din peshvolari, ta’lim muassasalarida ish olib boradigan mutasaddilarning keskin noroziligini keltirib chiqargan omilni aniqlang.
A) rus aholisining ta’lim muassasalariga jalb qilinishi
B) xristianlikning o‘lka aholisi orasida targ‘ib qilinishi
C) #vaqf yerlarining katta qismi davlat yerlariga aylantirilishi
D) rus aholisining o‘lkaga ko‘chirib keltirilishi

268. (201419)Qaysi qo‘zg‘olon rahbari oddiy fizikaviy hodisalardan foydalanib, xalq orasida mo‘jizalar ko‘rsatgan?
A) Yetimxon
B) Po‘latxon
C) Darvishxon
D) #Muhammad Ali

269. (201419)1898-yilgi Dukchi eshon qo‘zg‘oloni davrida harakatning umumiy rahbariga zudlik bilan qo‘shilmasdan, atrofdagi mustamlakachi qo‘shinlarga qarshi kurash olib borib, taktik xatoga yo‘l qo‘ygan rahnamolardan birini aniqlang.
A) G‘oyibnazar
B) Mirkarimboy
C) Rahmonqulihoji
D) #Chibil bo‘lis

270. (201419)1898-yilgi Andijon qo‘zg‘olonida faol ishtirok etgan va rahnamolik qilgan shaxslarni aniqlang.
1) Muhammad Ali eshon;
2) Muhammad Yoqub;
3) mingboshi G‘oyibnazar;
4) Rahmonqulihoji;
5) Ziyovuddin maxsum;
6) Chibil bo‘lis;
7) Mirkarimboy;
8) Damin kulol.
A) 1, 2, 4, 6, 8
B) 1, 4, 7, 8
C) #1, 3, 5, 6
D) 1, 2, 3, 4, 5

271. (201419) Rossiya imperiyasi Jizzax va O‘ratepani bosib olgandan 20 yil oldin….
A) Raim qalasi qurildi
B) #Muhammad Ali eshon tug‘ilgan.
C) Turkiston viloyati tashkil topdi
D) Rossiya imperiyasi Chimkent va Turkiston shaharlarini bosib oldi

272. (201419)Rus noibi polkovnik Konshevskiy qaysi qo‘zg‘olondan qo’rqib uyidan chiqmasdan telefon orqali harbiy kuchlarni chaqirgan?
A) 1878-yilgi Yetimxon qo‘zg‘oloni
B) 1885-yilgi Andijon qo‘zg‘oloni
C) #1898-yilgi Andijon qo‘zg‘oloni
D) 1892-yilgi “Vabo isyoni”

273. (201419)1898-yilgi Dukchi eshon qo‘zg‘olonida Ketmontepa va Ko‘gart qishlog‘idagi harakatlarga kim rahbarlik qilgan?
A) Ziyovuddin maxsum
B) #Chibil bo‘lis
C) Rahmonqulihoji
D) Mirkarimboy

274. (201419)1898-yilgi Dukchi eshon qo‘zg‘oloni bostirilgach, Turkiston general-gubernatori S.Duxovskiyga o‘lim jazosini ko‘paytirmaslik haqida telegramma yuborgan shaxsni aniqlang.
A) Imperator Aleksandr II
B) #Harbiy vazir A.Kuropatkin
C) Turkiston harbiy okrugi boshlig‘i N.Korolkov
D) Imperator Aleksandr III

275. (201419)Andijon qo‘zg‘oloni natijasida Rossiya hukumati Turkiston general-gubernatoriga o‘lim jazosini kamaytirish va uni qaysi jazo bilan almashtirish haqida ko‘rsatma bergan edi?
A) #katorga va qamoq jazosi
B) 70 darradan 200 darragacha kaltaklash jazosi
C) jarima, qamoq, qo‘l kesish
D) davlatga 5 yilgacha tekin ishlab berish, jarima

276. (201419)Andijon qo‘zg‘oloni bostirilgach, imperiya ma’muriyati nima sababdan o‘lim jazosini ko‘paytirmaslik haqida ko‘rsatma berdi?
A) ishchi kuchining kamayib ketishining oldini olish uchun

B) #mahalliy aholining g'azabini yanada kuchaytirmaslik uchun
C) xalqaro jamoatchilikning Rossiyaga nisbatan fikrini o'zgartirmaslik uchun
D) mahalliy aholi bilan kelishish uchun

277. (201419)Tarixiy manbalarda yozilishicha, Dukchi eshon qo'zg'oloni natijasida qancha odam o'lim jazosiga mahkum etilgan?
A) 340 ta
B) 180 ta
C) 250 ta
D) #380 ta

278. (201419)1898-yil vaqtinchalik Turkiston general-gubernatori lavozimiga tayinlangan N.Korolkov shu paytgacha qaysi lavozimda edi?
A) general-gubernator Devoni boshlig'i
B) Farg'ona viloyati gubernatori
C) #Sirdaryo viloyati gubernatori
D) Turkiston harbiy okrugi boshlig'i

279. (201419)1898-yilgi Dukchi eshon qo'zg'olonining mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'lgan omillarni aniqlang.
1) qo'zg'olon rahbarlari orasidagi o'zaro nizolar;
2) qo'zg'olonga aholining barcha tabaqalari ishtirok etmaganligi;
3) qo'zg'olonning o'lka bo'ylab keng tarqalib ketmaganligi;
4) qo'zg'olonni tashkil etishda qat'iy tartib va intizomning bo'lmaganligi;
5) qo'zg'olonchilarning aniq bir rejaga asoslanmaganligi;
6) hammaning bir vaqtning o'zida ko'tarilmaganligi;
7) qo'zg'olon va ishtirokchilarining harbiy sohadan bexabarligi, qurollarining o'ta soddaligi;
8) qo'zg'olonchilar tarkibida 3 ta guruhning mavjudligi va ularning bir-birini qo'llab-quvvatlamaganligi.
A) 1, 2, 5, 8
B) #2, 3, 4, 5, 6, 7
C) 2, 3, 4, 6, 7, 8
D) 1, 2, 3, 6, 7, 8

280. (201419)Italyancha "uycha", "kulba" ma'nolarini anglatuvchi atamani toping.
A) #kazarma
B) katorga
C) pristan
D) okrug

281. (201419)Mahbusning jinoyati uchun og'ir mehnat sharoitida jazoni o'tash joyi nima deb ataladi?
A) kazarma
B) lager
C) #katorga
D) turma

282. (201419)1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni boshlangan paytda dastlab qaysi tuman pristav qo'zg'olonchilar tomonidan o'ldirilgan?
A) Mingtepa
B) Qo'yli
C) #Asaka
D) Namangan

283. (201419)1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni natijasida necha kishiga berilgan o'lim jazosi o'z kuchida qoldi?
A) 11 kishi
B) #22 kishi
C) 18 kishi
D) 35 kishi

284. (201419)Yetimxon qo'zg'olonidan 20 yil o'tib ...

A) #Dukchi eshon qo‘zg‘olonining oldini ololmaganligi uchun Farg‘ona viloyati gubernatori lavozimidan ozod etildi
B) Namangan uyezdida mingboshilar saylovi qo‘zg‘olonga aylanib ketdi
C) Rossiyadan Farg‘ona vodiysiga aholining ko‘chirib keltirilishi kuchaydi
D) Turkiston o‘lkasida “Harbiy holatda deb e’lon qilingan joylar haqida Qoida” kuchga kirgan

285. (201420)XIX asrning ikkinchi yarmida bo’lgan milliy-ozodlik harakatlarida o’lka aholisining turli tabaqa vakillari ishtirok etgan. Shularni ko’rsating.
1) savdogarlar
2) dehqonlar
3) darveshlar
4) katta mulk egalari
5) hunarmandlar
6) harbiylar
7) mingboshilar
8) qozilar
9) chorvadorlar
10)din ulamolari
11)qishloq oqsoqollari
A) 2,3,4,7,9,10,11
B) #1,2,4,5,7,8,10,11
C) 2,3,5,6,8,9,11
D) 1,2,4,6,7,9,10

286. (201420)XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o’lkasida olib borilgan milliy-ozodlik harakatlari asosiy sabablarini toping.
1) soliq va majburiyatlarning og’irligi;
2) mahalliy boshqaruv vakillarining sotqinlarcha podsho ma’murlariga xizmat qilishi;
3) Dukchi eshon qo’zg’olonida 380 kishini o’lim jazosiga tortilgani;
4) Rossiya o’lkalaridan ko’chirib keltirilgan aholiga yangi ekin maydonlarining bo’lib berilishi;
5) narx-navolarning oshib ketganligi;
6) o’lkada paxtadan boshqa ekinni ektirilmaganligi;
7) turmush sharoitlarining yomonligi;
8) mahalliy aholi uchun tibbiy xizmat ko’rsatishning yo’qligi;
9) yangi ishlab chiqarish va texnologiyalarning faqat imperiya manfaatlariga xizmat qilishi;
A) #1, 2, 4, 5, 7, 8, 9
B) 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9
C) 1, 2, 5, 6, 7, 9
D) 2, 3, 6, 7, 8

287. (201420)XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda bo‘lgan milliy-ozodlik harakatlarining rahbarlari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
A) Damin kulol, Namoz Pirimqulov, Nazirxo‘ja eshon, Dukchi eshon
B) Inog‘omxo‘ja Umriyoxo‘jayev, Darvishxon, Abdurahmon jevachi, Abdurahmon Oftobachi
C) Yetimxon, Mirkarimboy, Muhammad Yoqub, Dukchi eshon, Nazirxo‘ja eshon
D) #Po‘latxon, Yetimxon, Qurbonjon dodhoh, Dukchi eshon, Darvishxon

288. (201420) Turkistondagi XIX asrning ikkinchi yarmidagi qo’zg’olonlar xarakteriga ko’ra qanday ko’rinishida yuz bergan?
A) bosqinchilik ko’rinishida yuz bergan
B) kelushuvchanlik ko’rinishida yuz bergan
C) #milliy-ozodlik ko’rinishida yuz bergan
D) ozodlikka qarshi kurash ko’rinishida yuz bergan

289. (201421)Qoraqalpoqlar XIX asr o‘rtalarida urug‘ ya’ni arislarga bo‘lingan bo’lib, arislar orasida eng yirigi qaysi edi?
A) shullik
B) jung’ar
C) #o‘n to‘rt urug‘
D) aris-qo‘ng‘irot

290. (201421)Qoraqalpoqlar XIX asr o‘rtalarida urug‘ ya’ni arislarga bo‘lingan bo’lib, arislar orasida harbiy kuch borasida ikkinchi o’rinda qaysi turgan?
A) #aris-qo‘ng‘irot
B) shullik
C) jung’ar
D) o‘n to‘rt urug‘

291. (201421)Xiva xoni XIX asrning ikkinchi yarmida qoraqalpoq urug‘larini boshqarish, soliqlarni undirish, harbiy xizmatni o‘tash majburiyatlariga doir ishlarni tartibga solish maqsadida qanday lavozimni joriy qilgan edi?
A) otaliq
B) inoq
C) #beklarbegi
D) Noib

292. (201421)Xiva xoni Muhammad Rahim I nima sababdan “Qoraqalpoq ulusini” tashkil qilgan edi?
A) qoraqalpoqlarni xonlik fuqaroligiga qabul qilish uchun
B) qoraqalpoqlarning xonlikka qarshi tinimsiz qo‘zg‘olonlarining oldini olish uchun
C) #qoraqalpoqlarni boshqarish qulay bo‘lishi uchun
D) qoraqalpoqlarni soliq tizimiga tortish uchun

293. (201421)Qaysi Xiva xoni davrida “qoraqalpoq ulusi” shakllantirildi?
A) Ollohqulixon
B) #Muhammad Rahimxon I
C) Asfandiyorxon
D) Muhammad Aminxon

294. (201421)Qoraqalpoqlar qachondan boshlab quyi Amudaryo havzasi va Orolning janubi, janubiy g‘arbiy sohillariga kelib joylashgan?
A) #XIX asr boshlaridan
B) XVIII asr oxirlaridan
C) XIX asr oxirlaridan
D) XVII asr o‘rtalaridan

295. (201421)Tarixan qoraqalpoqlar qaysi hududlarda yashab kelgan?
A) dastlab Ural daryosi havzasida, so‘ng quyi Sirdaryo havzasida, keyin Amuradyoning quyi oqimida, undan Orolning janudiy-sharqiy etaklarida
B) dastlab Volga daryosi havzasi, keyin Kaspiy dengizi bo‘ylarida, undan keyin Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimida
C) dastlab Ili daryosi bo‘ylarida, keyin Enasoy havzasida, undan keyin Orolning janubiy qismlarida
D) #dastlab Ural, keyin Volga bo‘ylarida, keyin Orol atrofi hamda Sirdaryoning quyi oqimlarida, undan keyin quyi Amudaryo havzasida

296. (201421)Qoraqalpoqlar orasida sudlarning nechta turi mavjud bo‘lgan?
A) uchta turi: o‘tov sudi, ovul sudi va biy sudi
B) #ikki turi: qozi sudi va biy sudi
C) ikki turi: o‘tov sudi va ovul sudi
D) to‘rt turi: o‘tov sudi, ovul sudi, biy sudi, qozi sudi

297. (201422)Qoraqalpoqlarning Xiva xoniga qarshi qo‘zg‘oloni rahbari Ernazarbiyning maqsadi nima edi?
A) #Xiva xonligi tobeligidan qutulib, Rossiya imperiyasi tobeligiga o‘tish
B) Xiva xoni zulmini kamaytirish, soliqlarni cheklash va xalqini majburiyatlardan ozod qilish
C) qozoq xonliklari bilan ittifoq bo‘lib, dastlab Xiva xonligi tasarrufidan chiqish, keyinchalik xonlik hududida yashovchi barcha qoraqalpoq xalqlari yashaydigan joylarni egallab olish
D) markazi Qo‘ng‘irot shahri bo‘lgan mustaqil qoraqalpoq xonligini tuzish

298. (201422)Bobo Go‘klan boshchiligidagi qoraqalpoqlar qo‘zg‘oloni nechanchi yillarda bo‘lgan?
A) 1889-1891-yillar
B) 1876-1885-yillar

C) 1883-1893-yillar
D) #1881-1891-yillar

299. (201422)XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligining qoraqalpoqlardan olinadigan zakot solig‘ining qiymati qancha bo‘lgan?
A) 40 bosh qoramol uchun 7 so‘m, 40 bosh qo‘y va echki uchun 3 so‘m 20 tiyin
B) 40 bosh qoramol uchun 9 so‘m, 40 bosh qo‘y va echki uchun 2 so‘m
C) 40 bosh qoramol uchun 8 so‘m 50 tiyin, 40 bosh qo‘y va echki uchun 2 so‘m 20 tiyin
D) #40 bosh qoramol uchun 9 so‘m, 40 bosh qo‘y va echki uchun 2 so‘m 50 tiyin

300. (201422)Urush ro‘y bergan taqdirda qoraqalpoq jamoalari Xiva xoniga navkar yig‘ib berishi kerak bo‘lgan. Askar yig‘ib bera olmagan jamoalardan … miqdorda pul yig‘ilgan.
A) 130-200 ming so‘m
B) 80-100 ming so‘m
C) #180-250 ming so‘m
D) 150-180 ming so‘m

301. (201422)Qoraqalpoqlarning Ernazarbiy boshchiligidagi qo‘zg‘oloni nechanchi yillarda bo‘ldi?
A) 1853-1856-yillarda
B) #1855-1856-yillarda
C) 1851-1855-yillarda
D) 1855-1859-yillarda

302. (201422)Xiva xoni Muhammad Aminxon hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
A) 1855-1856-yillar
B) 1842-1855-yillar
C) 1855-1856-yillar
D) #1845-1855-yillar

303. (201422)Qoraqalpoqlarning Xiva xoniga qarshi qo‘zg‘oloni rahbari Ernazarbiy qaysi qabiladan bo‘lgan?
A) mang‘it
B) joungur
C) shulluk
D) #qo‘ldovli

304. (201422)Qoraqalpoqlarning Xiva xoniga qarshi qo‘zg‘oloni rahbari Ernazarbiy tomonidan qurdirilgan qo’rg’oni aniqlang.
A) #Qozoqdaryo
B) Julek
C) Yangiqo‘rg‘on
D) Qamishqo‘rg‘on

305. (201422)Qoraqalpoqlarning Ernazarbiy boshchiligida qo‘zg‘olon qaysi Xiva xoni davrida bostirildi?
A) Muhammad Aminxon
B) Muhammad Rahim II
C) #Said Muhammadxon
D) Rahimqulixon

306. (201422)Qoraqalpoqlarning Xiva xoniga qarshi qo‘zg‘oloni rahbari Ernazarbiy kimni xon qilib ko‘tarishga intilgan edi?
A) marg‘it qabilasi boshliqlaridan biri Otamurodni
B) #qozoq urug‘i boshliqlaridan biri Zarliqni
C) Xiva harbiylaridan biri Muhammadniyozni
D) joungur qabilasi oqsoqoli Rizoqulni

307. (201422)Qoraqalpoqlarning Ernazarbiy boshchiligidagi qo‘zg‘olonini bostirish uchun Xiva xoni kimni jo‘natgan edi?
A) Otamurodxonni
B) Shohniyozni
C) Haqqulini

D) #Muhammadniyozni

308. (201422)1858-1859-yillarda Xiva xoniga qarshi qoraqalpoq urug'lari qo'zg'olon ko'targan bo'lib, uning markazi qaysi shahar edi?
A) #Qo'ng'irot
B) Xo'jayli
C) Chimboy
D) Kegiyli

309. (201422)Qoraqalpoqlarning Xiva xoniga qarshi qo'zg'oloni rahbari Ernazarbiy o'ldirilgach, bu qo'zg'olonni oxirigacha qo'llab-quvvatlovchi guruhlar qayerga qochishadi?
A) Afg'onistondagi ingliz rezidensiyasiga
B) Katta qozoq juzi qarorgohiga
C) Orenburg general-gubernatori qarorgohiga
D) #Oqmachit qal'asiga

310. (201422)1900-yilda qoraqalpoqlarning qayerlarda mustamlakachilarga qarshi norozilik harakatlari ko'tarildi?
A) Xo'jayli viloyati va Petro-Aleksandrovsk shahrida
B) #Nukus volosti va Qo'ng'irot bekligida
C) Chimboy, Beruniy tumani, Ural posyolkasida
D) Chimboy qishlog'i va Beruniy tumanida

311. (201422)1858-1859-yillarda Xiva xoniga qarshi qoraqalpoq urug'lari qo'zg'olon ko'targan bo'lib, bu qo'zg'olon kim tomonidan bostirilgan edi?
A) #turkman jangovar kuchlari boshlig'i Otamurodxon
B) qozoq urug'i boshliqlaridan biri Zarliq
C) Xiva harbiylaridan biri Muhammadniyoz
D) joungur qabilasi sardori Rizoqul

312. (201422)XIX asr oxirida mustamlakachi hukumatga qarshi Bobo Go'klan qo'zg'oloni qayerlarda ko'tarildi?
A) Petro-Aleksandrovsk va Ural posyolkasida
B) Chimboy va Xo'jayli viloyati, Petro-Aleksandrovskda
C) Orolbo'yi, Beruniy tumani va Ural posyolkasda
D) #Biybozor va Nukus volostida

313. (201422)Qoraqalpoqlarda yer solig'i nima deb atalgan?
A) ushr
B) #solg'ut
C) alg'ut
D) tanobona

314. (201422)Urush ro'y bergan taqdirda qoraqalpoq jamoalari Xiva xoniga qancha navkar yig'ib berishi kerak bo'lgan?
A) Har bir jamoa mingdan o'n minggacha
B) #Har bir jamoa mingdan ikki minggacha
C) Har bir jamoa ikki mingdan uch minggacha
D) Har bir jamoa besh mingdan o'n minggacha

315. (201422)Qoraqalpoqlarning Ernazarbiy boshchiligidagi qo'zg'olonini qaysi davlat qo'llab-quvvatlagan?
A) Eron
B) Buxoro amirligi
C) Qo'qon xonligi
D) #Rossiya imperiyasi

316. (201422-24)Berdaqning 1855-yilgi qo'zg'olonga bag'ishlangan asarini aniqlang.
A) "Omongeldi"
B) #"Ernazarbiy"
C) "Oydo'stbiy"

D) “Ahmoq podsho”

317. (201423)1873-yil Amudaryo bo‘limi tashkil qilinib, u qaysi viloyat tarkibiga kiritildi?
A) Kaspiyorti viloyati
B) Samarqand viloyati
C) #Sirdaryo viloyati
D) Toshkent uyezdi

318. (201423)1870-yilga kelib qoraqalpoqlar …
A) hunarmandchilik bilan shug‘ullana boshlashdi
B) #deyarli o‘troq turmush kechira boshladi
C) Orol bo‘yiga kelib joylashdilar
D) Amudaryoning quyi oqimiga kelib joylashdilar

319. (201423)1875-yil Ural kazaklari nima sababdan Amudaryo bo‘limiga ko‘chirildi?
A) yerga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida
B) harbiy xizmatni a’lo darajada bajarganliklari uchun
C) #armiya xizmati to‘g‘risidagi yangi nizomga bo‘ysunmaganligi uchun
D) rus hukumati Amudaryo bo‘limida o‘z mavqeini mustahkamlash maqsadida

320. (201423) Rossiyadan ko’chib kelganlar Amudaryo bo’limining qaysi hududlarida yashar edi?
A) Ural posyolkasi, Chimboy qishlog‘i va Beruniy tumanida
B) #Petro-Aleksandrovskda, Nukus qishlog’i va Uralskiy posyolkasida
C) Chimboyda, Xo‘jayli shahri va Petro-Aleksandrovskda
D) Orolbo‘yi, Beruniy tumani va Uralskiy posyolkasida

321. (201423)1875-yilda Ural kazaklari Qoraqalpog‘istonning qaysi hududlariga ko‘chirilgan edi?
A) Chimboy, Xo‘jayli viloyati, Petro-Aleksandrovsk
B) Orolbo‘yi, Beruniy tumani, Ural posyolkasi
C) #Petro-Aleksandrovsk, Ural posyolkasi, Nukus qishlog‘i
D) Ural posyolkasi, Chimboy qishlog‘i, Beruniy tumani

322. (201423)1873-yilgi shartnomadan keyin Xiva xonligi tarkibida qoraqalpoqlarning qancha qismi qoldi?
A) 70 ming
B) #25 ming
C) 38 ming
D) 20 ming

323. (201423)Amudaryo bo‘limida jami aholining necha foizini qoraqalpoqlar tashkil qilgan?
A) #48,6 %
B) 3,8 %
C) 70 %
D) 25 %

324. (201423)1875-yil Amudaryo bo‘limiga ko‘chirilgn Ural kazaklari bu yerda asosan qaysi mashg‘ulot bilan shug‘ullangan?
A) dehqonchilik
B) hunarmandchilik
C) ovchilik
D) #baliqchilik

325. (201423)Gandimiyon shartnomasidan keyin Xiva xonligida qoraqalpoqlar necha foizni tashkil qilgan?
A) 48,6 foizni
B) #3,8 foizni
C) 70 foizni
D) 25 foizni

326. (201423)XIX asr oxirida qoraqalpoqlarning qaysi shahri Rossiya imperiyasini Xiva xonligining iqtisodiy markazlari bilan bog‘lagan?
A) Qo‘ng‘irot

B) Xo‘jayli
C) #Chimboy
D) Kegiyli

327. (201423)Bir tanob yer qanchaga teng?
A) 1500 kv. m.
B) 1900 kv. m.
C) 2200 kv.m.
D) #2500 kv. m.

328. (201423)1914-yilda qoraqalpoqlar yerida nechta umumta’lim maktabi bo‘lgan?
A) 2 ta
B) #4 ta
C) 6 ta
D) 9 ta

329. (201424)Qoraqalpoq adiblari yashagan yili bilan to‘g‘ri berilgan javobni toping.
1) Kunxo‘ja;
2) Otash Olshinboy;
3) Ajiniyoz;
4) Berdaq
a) 1827-1900;
b) 1788-1875;
c) 1824-1878;
d) 1799-1880.
A) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a
B) 1-b, 2-c, 3-a, 4-d
C) #1-d, 2-b, 3-c, 4-a
D) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

330. (201424)Berdaq necha yoshdan she’r yoza boshlagan?
A) #20 yosh
B) 25 yosh
C) 18 yosh
D) 23 yosh

331. (201424)“Qirqqiz” dostonida aytilishicha, Olloyor qiziga qaysi yerni hadya etgan?
A) Sarkubni
B) #Muyelini
C) Chimboyni
D) Mang‘itni

332. (201424)Oxund so‘zining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
A) #o‘qimishli, ilmli kishi; xalq dostonlarining mohir ijrochisi
B) madrasa mudarrisi; darveshona hayot kechiruvchi kishi
C) tasavvuf tariqati rahnamosi; faqir, kambag‘al kishi
D) tarki dunyo qiluvchi, bu dunyo nozne’matlaridan voz kechgan

333. (201424)Qoraqalpoq og‘zaki ijodida kulgi qahramoni bo‘lgan obrazni aniqlang.
A) Kunxo‘ja
B) Zevar
C) #O‘mirbek
D) Otash Olshinbiy

334. (201424) “Qirqqiz” dostonining bosh g‘oyasi ...
A) sevgiga sadoqat, qahramonlik
B) #yuksak vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat
C) ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlik
D) mardlik, jasurlik, bahodirlik

335. (201424) “Qirqqiz” dostoni qahramonlaridan Arslon qayerlik bo‘lgan?
A) buxorolik
B) qo‘ng‘irotlik
C) eronlik
D) #xorazmlik

336. (201424)Taxallusi Zevar bo‘lgan qoraqalpoq adibini aniqlang.
A) Kunxo‘ja Ibrohim
B) #Ajiniyoz Qasiboy o‘g‘li
C) Berdaq
D) Otash Olshinboy

337. (201424) “Qirqqiz” dostonida aytilishicha, Olloyor qayerning hukmdori bo‘lgan?
A) #Sarkubning
B) Muyelining
C) Chimboyning
D) Mang‘itning

338. (201424)Qoraqalpoq adibi Kunxo‘ja o‘z ijodini nimaga bag‘ishlagan?
A) qoraqalpoq xalqining sarson-sargardonlikda turli yurtlarga ko‘chib yurishiga
B) yuksak vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat hissiga
C) #ovullarning oddiy ahliga, ularning kundalik mehnatiga va turmushiga
D) hukmdorlarning adolatsizligi, ularning turli isrofgarchilikka olib keladigan turmush tarziga

339. (201424)Qoraqalpoqlarning Tosh madrasasi qachon, kim tomonidan qurdirilgan?
A) 1841-yil, Qo‘ng‘irot hokimi Shohniyoz
B) 1847-yil, Xo‘jayli hokimi Otamurod
C) 1855-yil, Chimboy hokimi Olloyor
D) #1841-yil, Mang‘it hokimi Xo‘janiyoz

340. (201424)Qoraqum eshon madrasasi qachon qurilgan?
A) XIX asr oxirida
B) #XIX asr o‘rtalarida
C) XVIII asr oxirida
D) XVIII asr boshida

341. (201424)Qoraqalpoqlarda qachondan ilk yozma asarlar paydo bo‘la boshladi?
A) XVIII asr boshidan
B) XVIII asr oxiridan
C) #XIX asr oxiridan
D) XIX asr o‘rtalaridan

342. (201424)Qoraqalpoq madrasalarida ta’lim qaysi bosqichlarda amalga oshirilgan?
A) #ikki bosqichda: birinchi bosqichda arab tili grammatikasi o‘rgatilgan, ikkinchi bosqichda diniy-huquqiy bilimlar o‘rgatilgan
B) uch bosqichda: birinchi bosqichda alifbo o‘rgatilgan, ikkinchi bosqichda Qur’on oyatlari yodlatilgan, uchinchi bosqichda diniy bilimlar o‘rgatilgan
C) bir bosqichda: diniy bilimlar o‘rgatilgan
D) ikki bosqichda: birinchi bosqichda xalq og‘zaki ijodi o‘qitilgan, dostonlar yod olingan, ikkinchi bosqichda tabiiy bilimlar o‘rgatilgan

343. (201424)Dastlab Mo‘ynoqdagi eski maktabda, so‘ngra Xivadagi Sherg‘ozixon madrasasida o‘qigan qoraqalpoq adibini aniqlang.
A) Berdaq
B) Kunxo‘ja
C) #Ajiniyoz
D) Otash Olshinboy

344. (201424)Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchi bo‘lib oxund darajasiga erishgan adibni aniqlang.
A) #Ajiniyoz

B) Berdaq
C) Kunxo‘ja
D) Otash Olshinboy

345. (201424)XX asr boshlariga kelib qoraqalpoq demokratik an’analarining yangi avlod vakillarini aniqlang.
1) Jeyin Jirov;
2) Qulimbet;
3) Umar;
4) Sariboy,
5) Saidazimboy;
6) Bekmurot;
7) Sodiq;
8) Qulmurot.
A) 1, 2, 4, 7
B) #2, 3, 4, 7, 8
C) 2, 3, 5, 6, 8
D) 1, 3, 4, 5, 6, 8

346. (201424)“Ajiniyoz” romani muallifini aniqlang.
A) T.Bekmurot
B) S.Karimov
C) #K.Sultonov
D) D.Mashrabov

347. (201424)Ajiniyoz Qasiboy o‘g‘li qaysi tillarni yaxshi bilgan?
A) fors, turk, arab, o‘zbek
B) o‘zbek, tojik, fors, arab
C) turkman, qirg‘iz, turk, forz
D) #o‘zbek, qozoq, turkman

348. (201424)Berdaqning asarlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) “Ahmoq podsho”, “Avlodlar”, “Bo‘zatov”, “Xalq”
B) #“Omongeldi”, “Avlodlar”, “Oydo‘stbiy”, “Ernazarbiy”
C) “Xalq uchun”, “Omongeldi”, “Erniyozbey”, “Bo‘zatov”
D) “Oydo‘stbiy”, “Darbadal el”, “Edigey”, “Qublon”

349. (201424)Quyidagi qaysi asarda qoraqalpoqlarning yurtma-yurt ko‘chib yurishi bilan bog‘liq voqealar tasvirlangan?
A) “Xalq uchun”
B) “Ahmoq podsho”
C) #“Bo‘zatov”
D) “Qiz Mengesh bilan aytishuv”

350. (201425) Andijon (Dukchi eshon) qo’zg’oloni bo’lgan yili....
A) Namangan uyezdining Oqsuv-Shahrixon volostidagi Naymanchi, Ko’hna mozor, Langarbob qishloqlarida mingboshilar saylovlaridagi norozilik qo’zg’olonga aylanib ketdi.
B) #Turkistonda ikkinchi jadid maktabi Qo’qon shaharda ochilgan.
C) 1900-yil Nukus volosti va Qo’ng’irot bekligida norozilik harakatlari amalga oshirildi.
D) Turkistonda birinchi jadid maktabi Buxoro shaharda ochilgan.

351. (201425)Ismoil G‘aspirali nechanchi yillarda yashagan?
A) 1845-1909-yillar
B) #1851-1914-yillar
C) 1829-1901-yillar
D) 1856-1918-yillar

352. (201425)Turkistonda birinchi jadid maktabi qaysi shaharda ochilgan?
A) Qo‘qonda
B) Andijonda
C) #Buxoroda

D) Samarqanda

353. (201425) “Usuli savtiya” birikmasining ma’nosi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) yangi usul
B) birgalikdagi ta’lim
C) #harf tovushi usuli
D) yozib o‘rgatish usuli

354. (201425)Ismoil G‘aspirali 40 kunda nechta o‘quvchining savodini chiqargan?
A) 4 ta
B) #12 ta
C) 19 ta
D) 28 ta

355. (201425)1884-yil qaysi shaharda birinchi jadid maktabi ochildi?
A) Buxoroda
B) Anqarada
C) Bakuda
D) #Boqchasaroyda

356. (201425) 1888-yilda chop etilgan “Rahbari muallimin” yoki “muallimlarga yo’ldosh” kitobi kimga tegishli?
A) M.Behbudiy
B) #Ismoil G‘aspirali
C) Ahmad Donish
D) Munavvarqori

357. (201425)Turkistonda taraqqiyparvarlik harakatining rivojlanishi nechta bosqichda bo‘ldi?
A) uch boshqichda: birinchi bosqich maktab islohoti, ikkinchisi teatrlar tashkil etish, uchinchisi demokratik davlat qurish
B) ikki bosqichda: birinchi bosqich o‘lkada maktablar tashkil etish, ikkinchi bosqich o‘lka yoshlarini chet ellarda o‘qitish
C) #ikki bosqichda: birinchi bosqich ma’rifatparvarlik, ikkinchi bosqich siyosiy ko‘rinishdagi harakat
D) to‘rt bosqichda: birinchi bosqich o‘lkada maktablar tashkil etish, ikkinchisi yoshlarni chet ellarda o‘qitish, uchuchisi teatrlar tashkil etish, to‘rtinchisi demokratik davlat qurish

358. (201425) Turkiston taraqqiyparvarlarining eng yoshi kichigi bo’lgan Cho’lpon 1910-yil necha yoshda edi?
A) 12 yosh
B) 11 yosh
C) #13 yosh
D) 15 yosh

359. (201425)Butun turkiy xalqlar o‘rtasida yoyilgan jadidchilik harakatining asochisi kim?
A) Munavvar Qori
B) #Ismoil G‘aspirali
C) Ahmad Donish
D) Mahmudxo‘ja Behbudiy

360. (201425) “Jadid” so‘zining ma’nosi nima?
A) intizom
B) dunyoviy
C) #yangi
D) usul

361. (201425)Butun turkiy xalqlar orasida jadidchilik g‘oyalarining tarqalishiga qaysi gazetaning o‘rni katta bo‘lgan?
A) “Xurshid”
B) #“Tarjimon”
C) “El bayrog‘i”

D) “Sadoi Turkiston”

362. (201425)Temiryo‘l orqali dastlabki poyezd Samarqandga kelgan yili ...
A) Ismoil G‘aspirali Turkistonga sayohat qildi
B) Andijonda dastlabki yangi usul maktabi ochildi
C) #“Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobi chop etildi
D) “Fargo‘na sahifasi” jurnali chiqa boshladi

363. (201425)1910-yil Turkiston taraqqiyparvarlarining eng yoshi kichigi va eng yoshi kattasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) Cho‘lpon va Munavvar Qori
B) Abduqodir Shokuriy va Ahmad Donish
C) Obidjon Mahmudiy va Fitrat
D) #Cho‘lpon va Mahmudxo‘ja Behbudiy

364. (201425)O‘rta Osiyodagi milliy taraqqiyparvarlik harakati hududiy xususiyatlariga ko‘ra ... jadidlariga bo‘linadi.
A) Buxoro, Toshkent, Qo‘qon
B) Xiva, Buxoro, Qo‘qon, Samarqand
C) #Turkiston, Buxoro va Xiva
D) Farg‘ona, Sirdaryo, Samarqand

365. (201425)Quyidagi qaysi asarda yangi usul maktablarining ta’lim tizimi, dars o‘tish va uning ashkil qilinishi, xonalarning jihozlanishi, dars jadvali, ta’tillar, imtihonlar bayon etilgan?
A) “Turkiy guliston yoxud axloq”
B) “Birinchi muallim”
C) #“Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh”
D) “Yer yuzi”

366. (201425)Turkistonda ikkinchi jadid maktabi qachon va kim tomonidan ochilgan?
A) 1899-yil Mannon qori
B) 1893-yil Shamsiddin domla
C) #1898-yil Salohiddin domla
D) 1897-yil Ahmadjon domla

367. (201425)Xiva xonligida XX asr boshlarida shakllangan taraqqiyparvarlik harakati nechta oqimdan iborat bo‘lgan va ular qaysilar?
A) 3 ta oqim: Davlatmurod mahram boshchiligidagi o‘ng oqim, Islomxo‘ja boshchiligidagi so‘l oqim, xon rahbarligidagi markaz
B) #ikkita oqim: qozikalon Boboxon Salimov boshchiligidagi - so‘l oqim, bosh vazir Islomxo‘ja boshchiligida - o‘ng oqim
C) Boboxon Salimov boshchiligidagi bitta oqim
D) 4 ta oqim: Matmurod boshchiligidagi demokratlar, Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi respublikachilar, Bobooxun Salimov boshchiligidagi o‘ng oqim, Islomxo‘ja boshchiligi monarxiyachilar

368. (201425)1910-yil Turkistondagi jadidlarning eng yoshi ... yoshda, eng kattasi ... yoshda bo‘lgan?
A) 19, 28
B) 15, 43
C) 12, 38
D) #13, 36

369. (201425)Xiva xonligida bosh vazir Islomxo‘ja boshchiligidagi jadidchilik oqimining maqsadi nima bo‘lgan?
A) yangi usul maktablarini tashkil qilish, yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish
B) xon hakimiyatini ag‘darib, demokratik tuzumni tashkil etish
C) yangilik va islohotlarni xushlamaydigan qadimchilar oqimini tag-tomiri bilan yo‘qotish
D) #xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o‘tkazish

370. (201425)Jadidchilik harakati Buxoroda nechanchi yildan boshlab siyosiy tashkilot sifatida shakllana boshladi?

A) 1900-yil
B) #1910-yil
C) 1918-yil
D) 1917-yil

371. (201425)Toshkentdagi dastlabki jadid maktabi qachon, kim tomonidan tashkil etilgan?
A) 1898-yil Abdurazzoq qori
B) #1899-yil Mannon qori
C) 1897-yil Salohiddin domla
D) 1898-yil Shamsiddin domla

372. (201425)Andijonda dastlabki poyezd kelgan yili o‘sha yerda ...
A) “Xurshid” gazetasi tashkil qilindi
B) #Shamsiddin domla rahbarligida dastlabki jadid maktabi ochildi
C) Abdulhamid Cho‘lpon tug‘ildi
D) Ishoqxon Ibrat vafot etdi

373. (201425)Ismoil G‘aspiralining Toshkent, Samarqand Buxoroga tashrif buyurgan yili ...
A) Andijonda dastlabki yangi usul maktabi ochildi
B) #Buxoro amirligida birinchi jadid maktabi ochildi
C) “Shuhrat” gazetasi tashkil qilindi
D) “Fargo‘na sahifasi” jurnali chiqa boshladi

374. (201425)Turkiston jadidlari, ziyolilarning fikricha, xalqni ozodlikka eltuvchi yo‘l nima bo‘lgan?
A) xon hokimiyati, monarxiyani ag‘darish
B) hukmdorlarning hokimiyati cheklanishi, xalqning boshqaruvda ishtirok etishi
C) barcha tabaqalarning bir paytda, bir joyda birlashib, mustamlakachilarga zarba berish
D) #aholining bilimini, ma’rifatini uyg‘otish

375. (201425)XX asr boshida Xiva xonligidagi taraqqiyparvarlarning so‘l oqimiga kimlar birlashgan va ularning maqsadi nima edi?
A) Islomxo‘ja boshchiligidagi sanoat korxonalari egalari va yirik boylarni birlashtirgan, xon hokimiyatini saqlab qolgan holda islohotlar o‘tkazish
B) Boboxon Salimov boshchiligidagi sanoat korxonalari egalari va yirik boylarni birlashtirgan, yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish
C) #Boboxon Salimov boshchiligidagi sarmoyadarlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirgan, yangi usul maktablarini tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligiga erishish
D) Polvonniyoz Hoji Yusupov boshchiligidagi demokratchilarni birlashtirgan, yangilik va islohotlarni xushlamaydigan qadimchilar oqimini tag-tomiri bilan yo‘qotish

376. (201425)Qaysi hududdagi milliy ziyolilarning harakati Turkiston o‘lkasiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda vujudga keldi?
A) Farg‘ona
B) Ettisuv
C) Xiva
D) #Buxoro

377. (201425) “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo‘ldosh” kitobining muallifi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) Munavvar Qori
B) Abdurauf Fitrat
C) Abdulla Avloniy
D) #Ismoil G‘aspirali

378. (201426) “Taraqqiy” gazetasi nechanchi yildan chiqa boshlagan?
A) #1906-yil
B) 1908-yil
C) 1907-yil
D) 1913-yil

379. (201426)Quyidagi jadid matbuot nashrlari ichida qaysi biri jurnal hisoblanadi?
A) “Sadoi Farg‘ona”
B) “Kengash”
C) #“Oyna”
D) “Sadoi Turkiston”

380. (201426)Turkistondagi yangi usul maktablari ta’lim jarayonida qanday standart mezon qilib olingan edi?
A) Turkiya standartlari
B) #Yevropa standartlari
C) Amerika standartlari
D) Sharqiy Osiyo standartlari

381. (201426)O‘rta Osiyo taraqqiyparvarlari rivojlangan jamiyat tashkil etish vazifasini amalga oshirishda quyidagi qaysi yo‘nalishlar ustuvor bo‘lib hisoblanadi?
1) o‘lkada yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
2) harbiy-siyosiy tashkilotlar tuzish va u orqali mustaqillikka erishish;
3) qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish;
4) turli ma’rifiy jamiyatlar, teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish;
5) xalqni mustamlakachilarga qarshi targ‘ib qilish yo‘li bilan mustaqil demokratik davlat tuzish;
6) xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini oshirish yo‘li bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish.
A) 1, 2, 3, 4, 5
B) 1, 3, 6
C) 2, 3, 5, 6
D) #1, 3, 4, 6

382. (201426)Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko‘pchiligida qayerda nashr qilingan qo‘llanmalardan foydalanilgan?
A) #Qozon va Orenburg
B) Angliya va Germaniya
C) Turkiya va Eron
D) Xitoy va Hindiston

383. (201426)Quyidagi matbuot nashrlari va ularni tashkil qilgan muharrirlarni aniqlang.
1) “Xurshid”;
2) “Shuhrat”;
3) “Taraqqiy”;
4) “Osiyo”
a) Abdulla Avloniy;
b) Anmadjon Bektemirov;
c) Munavvar Qori;
d) Ismoil Obidov
A) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b
B) #1-c, 2-a, 3-d, 4-b
C) 1-c, 2-a, 3-b, 4-d
D) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c

384. (201426)1917-yilda tashkil etilgan ommaviy axborot vositalarini aniqlang.
A) #“Hurriyat” va “Farg‘ona sahifasi”
B) “Oyna” va ”Turon”
C) “Sadoi Farg‘ona” va “Ulug‘ Turkiston”
D) “Sadoi Turkiston” va “Kengash”

385. (201426)1917-yilga kelib Turkiston o‘lkasida jadid maktablarining soni qancha bo‘lgan?
A) 80 ga yaqin
B) 24 ta
C) 63 ta
D) #100 ga yaqin

386. (201426)1911-yilda O‘rta Osiyoda yangi usuldagi maktablar soni ... ga, undagi o‘quvchilarning soni ... ga yetdi.
A) 24 ta, 1740 ta
B) 61 ta, 4102 ta
C) #63 ta, 4106 ta
D) 83 ta, 2430 ta

387. (201426)1910-yil Toshkentda ... jadid maktabi faoliyat ko‘rsatib, ularda ... o‘quvchi o‘qigan.
A) 63 ta, 4106 ta
B) #24 ta, 1740 ta
C) 83 ta, 2430 ta
D) 24 ta, 4102 ta

388. (201426)1913-1915-yillarda Turkistonda nashr etilgan gazetalarni aniqlang.
1) “Sadoi Turiston”;
2) “Xurshid”;
3) “Sadoi Farg‘ona”;
4) “El bayrog‘i”;
5) “Samarqand”;
6) “Hurriyat”;
7) “Kengash”;
8) “Turon”;
9) “Shuhrat”;
10) “Ulug‘ Turkiston”
A) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 9
B) 2, 3, 6, 7, 9, 10
C) #1, 3, 4, 5, 7, 8, 10
D) 2, 5, 6, 9, 10

389. (201426)Jadidlar xotin-qizlar ta’limi masalasida qanday fikrda bo‘lgan?
1) alohida ayollar maktabini tashkil qilish;
2) islom ayollarni ma’rifatli bo‘lishiga to‘sqinlik qilmaydi, deb hisoblagan;
3) jadidlar o‘g‘il va qiz bolalarni birga o‘qitishni yoqladilar;
4) jadidlar qizlar uchun faqat diniy bilimlar o‘rgatilishini yoqlab chiqdilar.
A) 1, 4
B) #2, 3
C) 1, 2, 3
D) 2, 4

390. (201427)Jadid ma’rifatparvarlaridan qaysi biri imomxatib, qozi, keyin muftiy lavozimlarida faoliyat ko‘rsatgan?
A) A.Avloniy
B) Fitrat
C) #M.Behbudiy
D) Asadullaxo‘ja o‘g‘li Ubaydullaxo‘ja

391. (201427) “Shuhrat” gazetasi nechanchi yil tashkil qilingan?
A) 1909-yil
B) 1906-yil
C) 1908-yil
D) #1907-yil

392. (201427)Turkiston jadidlarini birlashtirishda “O‘rta Osiyo jadidlarining otasi” deb tan olingan allomani toping.
A) Munavvar Qori
B) Abdurauf Fitrat
C) Abdulla Avloniy
D) #Mahmudxo‘ja Behbudiy

393. (201427)XX asr boshida Turkistonda jadidlarning butun bir avlodi shakllangan bo'lib, ularni faoliyat olib borgan hududi bilan to'g'ri aniqlang.
1) Xivada;
2) Toshkentda;
3) Buxoroda;
4) Farg'ona vodiysida;
5) Samarqandda.
a) Mahmudxo'ja Behbudiy;
b) Abduqodir Shakuriy;
c) Polvoniyoz Hoji Yusupov;
d) Saidahmad Siddiqiy-Ajziy;
e) Bobooxun Salimov;
f)Munavvar Qori;
g) Is'hoqxon Ibrat;
h) Abdulla Avloniy;
i) Cho'lpon;
j)Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev;
k) Obidjon Mahmudov;
l)Fitrat;
m) Hamza Hakimzoda Niyoziy;
n) Sadriddin Ayniy;
o) Fayzulla Xo'jayev.
A) 1-c, e; 2-f, o, j; 3-l, n, h; 4-a, i, d; 5-g, b, k
B) 1-g, e; 2-f, h, j; 3-l, n, o; 4-c, i, k; 5-a, d, b
C) #1-c, e; 2-f, h, j; 3-l, n, o; 4-g, i, k; 5-a, b, d
D) 1-c, e; 2-f, k, j; 3-d, n, o; 4-g, i, h; 5-a, b, l

394. (201427)Bir yilda tavallud topgan jadid allomalarini aniqlang.
A) Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulhamid Cho'lpon
B) Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy
C) #Munavvar Qori, Abdulla Avloniy
D) Bobooxun Salimov, Polvoniyoz Hoji Yusupov

395. (201427)Mahmudxo'ja Behbudiy tashabbusi bilan tashkil etilgan "Behbudiy kutubxonasi" kimning sharafiga qilingan edi?
A) Behbudiyning ustozi Ahmad Donish
B) #Behbudiyning otasi
C) Buxoro amiri Amir Abdulahad
D) Ismoil G'aspirali

396. (201427)"Adibi avval", "Adibi soniy", "Yer yuzi" kabi maktab darsliklari qaysi jadid ma'rifatparvari qalamiga mansub?
A) #Munavvar Qori
B) Abdurauf Fitrat
C) Abdulla Avloniy
D) Mahmudxo'ja Behbudiy

397. (201427) Kim Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan?
A) Munavvar Qori
B) Abdurauf Fitrat
C) Abdulla Avloniy
D) #Mahmudxo'ja Behbudiy

398. (201427)Hokimiyatning mavjud tuzum uchun zararli deb hisoblagan ma'lumotlarni cheklash maqsadida matbuot ustidan nazorat qilishi nima deyiladi?
A) pamflet
B) felyeton
C) #senzura
D) rezumi

399. (201427)Mahmudxo‘ja Behbudiy qachon tug‘ilgan?
A) 1866-yilning 20-martida
B) #1875-yilning 19-yanvarida
C) 1878-yilning 22-fevralida
D) 1891-yilning 24-yanvarida

400. (201427)Mirkomil Mirmo‘minboyev – bu ...
A) #Andijonlik taraqqiyparvar sarmoyador bo‘lib, yoshlarning chet ellarda o‘qishi uchun mablag‘ ajratgan
B) Toshkentlik jadid bo‘lib, huquqshunoslik sohasi bo‘yicha Rossiyada ta’lim olib qaytgan edi
C) Samarqandlik ma’rifatparvar bo‘lib, “Tarbiyayi atfol” jamiyatining a’zosi bo‘lgan
D) Toshkentlik ma’rifatparvar bo‘lib, Beshyog‘ochda birinchi jadid maktabini ochgan edi

401. (201427)1904-yildan boshlab Turkiston o‘lkasida ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatlarning faol ishtirokchisiga aylangan ma’rifatparvarni aniqlang.
A) Abdurauf Fitrat
B) Abdulla Avloniy
C) #Munavvar Qori
D) Mahmudxo‘ja Behbudiy

402. (201427) “Tarbiyayi atfol” jamiyati nechanchi yilda tashkil etilgan?
A) 1906-yil
B) #1910-yil
C) 1904-yil
D) 1913-yil

403. (201427) “Tarbiyayi atfol” jamiyatini tashkil qilgan ma’rifatparvar jadidlar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?
1) Muhammaddin maxdum;
2) Abdurauf Abdurahim o‘g‘li;
3) Polvoniyoz Yusupov;
4) Hoji Rafiy;
5) Mirza Abduvohid;
6) Saidahmad Siddiqiy-Ajziy;
7) Usmonxo‘ja;
8) Mahmudxo‘ja;
9) Hamidxo‘ja Mehriy;
10)Hakimxo‘ja Maxdum
A) 1, 3, 4, 6, 9
B) 2, 3, 5, 7, 10
C) #1, 4, 5, 7, 9
D) 2, 4, 6, 9, 10

404. (201427) “Tarbiyayi atfol” jamiyati qayerda tashkil etilgan?
A) Farg‘onada
B) Toshkentda
C) Xivada
D) #Buxoroda

405. (201427) “Tarbiyayi atfol” jamiyati 1911-yilda ... nafar, 1912-yil ... nafar talabani ... ga o‘qishga yuborgan?
A) 12, 15, Yevropa mamlakatlari
B) #15, 30, Turkiya
C) 13, 21, Sharq mamlakatlari
D) 12, 30, Germaniya

406. (201427)Absolyutizm so‘zining mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) qo‘sh hokimlik
B) boshboshdoqlik
C) #yakka hukmdorlik
D) cheklangan hokimlik

407. (201427) "Muallimi avval", "Muallimi soniy", "Turkiy guliston yoxud axloq" asarlarining muallifi kim?
A) #Abdulla Avloniy
B) Munavvar Qori
C) Abdurauf Fitrat
D) Mahmudxo'ja Behbudiy

408. (201428)Islom dini tarixiga oid bir xil nomda asar yozgan jadid allomalarini toping.
A) Abdulla Avloniy, Bobooxun Salimov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev
B) Abduqodir Shakuriy, Polvoniyoz Hoji Yusupov, Munavvar Qori
C) Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev
D) #Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat

409. (201428)Jadidlarning fikriga ko'ra, chin musulmon bo'lish uchun ...
A) barcha dunyo dinlarining mazmunini bilishi zarur
B) #diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlarni bilishi zarur
C) islom dinining 5 ta arkoniga amal qilishi lozim
D) Qur'on va Hadislarning mazmunini yaxshi o'zlashtirish lozim

410. (201428)Birinchi oliy ma'lumotli o'zbek advokatini aniqlang.
A) Sadriddin Ayniy
B) Mirkomil Mirmo'minboyev
C) Fayzulla Xo'jayev
D) #Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev

411. (201428)Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy bilan yozishmalar olib borgan Turkiston taraqqiyparvarini aniqlang.
A) Ahmad Donish
B) Sadriddin Ayniy
C) #Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev
D) Fayzulla Xo'jayev

412. (201428)1917-yil Rossiyadagi fevral voqealaridan keyin Turkiston jadidlarining g'oyasi qanday yo'nalishlarda o'zgardi?
1) o'lkani boshqarish yuzasidan islohotlar o'tkazish;
2) parlamentar monarxiya tashkil qilish;
3) mahalliy aholi huquqlarini kengaytirish;
4) yoshlarni chet ellarda o'qitishni ta'minlash;
5) Davlat Dumasidan o'lka aholisi sonidan kelib chiqib o'rin ajratish;
6) milliy matbuot erkinligini ta'minlash.
A) 2, 3, 4
B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 2, 4, 6
D) #1, 3, 5, 6

413. (201428)Biror-bir hududning qonun bilan chegaralangan davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirish huquqi nima deyiladi?
A) delegatsiya
B) #avtonomiya
C) federatsiya
D) absolyutizm

414. (201428) "Musulmonlar markaziy sho'rosi" tashkiloti qachon va qayerda tuzilgan?
A) 1917-yil aprelda Buxoroda
B) 1915-yil fevralda Toshkentda
C) #1917-yil martda Toshkentda
D) 1918-yil oktabrda Qo'qonda

415. (201428)Turkiston Muxtoriyati respublikasi qancha vaqt faoliyat ko'rsargan?
A) 90 kun
B) 2 oy

C) 120 kun
D) #72 kun

416. (201428) “Qonun” ma’nosini bildiruvchi atamani aniqlang.
A) federal
B) delegatsiya
C) #avtonomiya
D) syezd

417. (201428)Jadidlar tomonidan tashkil etilgan “Musulmonlar markaziy sho‘rosi”ning ta’sis syezdida nechta delegat qatnashgan?
A) 250 ta
B) #350 ta
C) 175 ta
D) 280 ta

418. (201428)Jadidlar tomonidan tashkil etilgan “Musulmonlar markaziy sho‘rosi”ning ta’sis syezdida ishtirok etgan delegatlar qanday qarorga kelgan?
1) Turkiston deb atalgan davlat tashkil etish;
2) Turkiston Muxtoriyati davlatini tuzish;
3) tarkibiga Buxoro, Xiva hamda Turkiston general-gubernatorligi kirgan yangi davlat tuzish;
4) Buxoro va Xiva davlatlarida monarxiya tuzumini saqlab qolgan holda, parlament shaklidagi Kengash tashkil qilish.
A) #1, 3
B) 1, 2, 4
C) 2, 4
D) 1, 3, 4

419. (201428)Toshkentning Qoryog‘di mahallasidan bo‘lgan jadid ma’rifatparvarini aniqlang.
A) Abdulla Avloniy
B) Munavvar Qori
C) Ismoil Odidov
D) #Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev

420. (201428)Abdulla Avloniyning islom tarixiga oid asari nechanchi yilda yozilgan?
A) #1910-yil
B) 1909-yil
C) 1915-yil
D) 1913-yil

421. (201428)1909-yil qaysi jadid ma’rifatparvari islom tarixiga oid asar yozgan?
A) Sadriddin Ayniy
B) #Mahmudxo‘ja Behbudiy
C) Abdurauf Fitrat
D) Hamza Hakimzoda Niyoziy

422. (201429)Rossiyaning birinchi jahon urushi natijasida Turkiston o‘lkasidan urushga kimlar jalb qilinishi belgilandi?
A) 19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan mahalliy aholi vakillari
B) zaxirada bo‘lgan rus zobitlari
C) #19 yoshdan 43 yoshgacha bo‘lgan aholining yevropalik vakillari
D) 19 yoshga to‘lgan barcha erkaklar

423. (201429)Turkistonda “favqulodda muhofaza holati” deb e’lon qilingan sanani aniqlang.
A) 1916-yil
B) 1915-yil
C) #1914-yil
D) 1917-yil

424. (201429)1916-yil 25-iyundagi podsho farmoniga muvofiq necha yoshdan katta boʻlgan erkaklar mardikorlikka olinishi lozim edi?
A) 18 yosh
B) #19 yosh
C) 16 yosh
D) 17 yosh

425. (201429)Antanta ittifoqiga kiruvchi davlatlarni aniqlang.
A) Germaniya, Avstriya-Vengriya, Italiya
B) Rossiya, Germaniya, Fransiya
C) Germaniya, Angliya, Fransiya
D) #Angliya, Fransiya, Rossiya

426. (201429)1916-yil Turkistonda yashaydigan yevropalik aholining urushga safarbar qilinishi nima sababdan ularning oilasini noqulay ahvolga soldi?
A) chunki ularning oilasi ikki yoki uch kichidan iborat boʻlgan
B) #chunki safarbarlik ayni hosil yigʻiladigan paytga toʻgʻri kelgan edi
C) chunki ular endi koʻchib kelgan boʻlib, hali oʻlkaga toʻliq moslashmagan edi
D) ularning oilasini mahalliy aholidan himoyalaydigan odam boʻlmaganligi

427. (201429)Rossiya imperatori Nikolay II ning hukmronlik yillarini aniqlang.
A) 1891-1918-yillar
B) 1881-1917-yillar
C) #1894-1917-yillar
D) 1897-1916-yillar

428. (201429)Birinchi jahon urushi boshlangach, Turkistonda "favqulodda muhofaza holati" deb e'lon qilingan boʻlib, "favqulodda holat" tartiblariga rioya etmagan va uni buzgan shaxslarga qanday jazo qoʻllanilgan?
A) 100 soʻmgacha jarima yoki 3 yilgacha qamoqqa olingan
B) #50 soʻmgacha jarima yoki 3 oygacha qamoqqa olingan
C) 80 soʻmgacha jarima yoki 3 yilgacha qamoqqa olingan
D) 50 soʻmgacha jarima yoki 6 oygacha qamoqqa olingan

429. (201430)1916-yil 25-iyundagi podsho farmoniga koʻra Fargʻona viloyatidan qancha kishi mardikorlikka olinishi kerak edi?
A) 38 ming
B) #50 ming
C) 87 ming
D) 85 ming

430. (201430)1916-yil 4-iyulda norozilik harakatlari dastlab qaysi shaharda boshlangan edi?
A) Jizzax
B) Samarqand
C) #Xoʻjand
D) Toshkent

431. (201430)Fargʻona viloyati gubernatori A.Gippuis nima sababdan lavozimidan olib tashlanadi?
A) xalq harakatlarini bostira olmaganligi uchun
B) #imperatorga Turkiston oʻlkasida norozilik kayfiyati haqida bergan ma'lumotini buyruqni bajarmaslik deb hisoblanganligi uchun
C) qoʻzgʻolonchilar bilan muzokaralar olib borib, tinchlik yoʻli bilan xalq harakatlarini bostirishga uringanligi uchun
D) qoʻzgʻolonlarning oldini ololmaganligi uchun

432. (201430)Podsho farmoniga muvofiq, Turkiston oʻlkasining qaysi viloyatidan front orqasiga eng koʻp mardikor olinishi kerak edi?
A) Kaspiyorti viloyati
B) Fargʻona viloyati
C) Samarqand viloyati

D) #Sirdaryo viloyati

433. (201430)1916-yilgi qo'zg'olon boshlangan hududlar ketma-ketligini ko'rsating.
1) Jizzax;
2) Samarqand;
3) Xo'jand;
4) Toshkent.
A) 3, 2, 1, 4
B) 2, 3, 4, 1
C) #3, 2, 4, 1
D) 3, 1, 4, 2

434. (201430)1916-yil 25-iyundagi podsho farmoniga ko'ra Samarqand viloyatidan qancha kishi mardikorlikka olinishi kerak edi?
A) 50 ming
B) 87 ming
C) #38 ming
D) 85 ming

435. (201430)1916-yilgi qo'zg'olonlarni eslang! Rizvonbibi Ahmadjonova qaysi shahar qo'zg'olonchilari tarkibida bo'lgan?
A) Xo'jand
B) Jizzax
C) Samarqand
D) #Toshkent

436. (201430)1916-yil imperatorning farmoniga ko'ra front ortiga safarbarlik e'lon qilingan bo'lib, qaysi viloyatda belgilangan mardikorni to'plash uchun xonadonlarning har beshtasidan bir kishini olishga to'g'ri kelgan?
A) Samarqand
B) Sirdaryo
C) Yettisuv
D) #Farg'ona

437. (201430)1916-yil 7-iyulda qayerda norozilik chiqishlari bo'lgan?
A) #Dahbetda
B) Urgutda
C) Angorda
D) Rishtonda

438. (201430)1916-yil qaysi shaharda bo'lgan qo'zg'olon natijasida 2 ta mirshab va 63 ta qo'zg'olonchi o'ldirilgan?
A) Namanganda
B) Andijonda
C) Rishtonda
D) #Eski Marg'ilonda

439. (201430)1916-yilgi norozilik harakatlari Toshkentdan keyin qaysi hududga o'tib, u yerda alangalanib ketdi?
A) Jizzax uyezdi
B) #Farg'ona vodiysi
C) Samarqand uyezdi
D) Xorazm vohasi

440. (201430)1916-yil 9-iyul kuni qaysi shaharda imperator farmoni o'qib eshittirilishi natijasida norozilik chiqishlari boshlandi?
A) Toshkentda
B) #Andijonda
C) Jizzaxda
D) Eski Marg'ilonda

441. (201430)1916-yil 5-iyulda Samarqandning qaysi qishlog‘ida norozilik chiqishlari bo‘lgan?
A) Dahdedda
B) Orifonda
C) Sangzorda
D) #Urgut

442. (201430)1916-yilgi qo‘zg‘olonlarda kim ma’muriyatga qarata “Bizni o‘ldirsanglar ham o‘g‘illarimizni sizlarga bermaymiz”, deb aytdan edi?
A) Mirkarimboy
B) #Rizvonbibi Ahmadjonova
C) Ro‘zi Solijonova
D) Muhammad Yoqub

443. (201430)1916-yil 10-iyul kuni qaysi shaharda 25 mingga yaqin aholi bozor maydonida yig‘ilib, norozilik chiqishini uyushtirgan?
A) Toshkentda
B) Andijonda
C) Jizzaxda
D) #Eski Marg‘ilonda

444. (201430)1916-yil qaysi shaharda bo‘lgan qo‘zg‘olon natijasida politsiya tomonidan 11 kishi o‘ldirilgan va 15 kishi yarador qilingan?
A) #Toshkentda
B) Rishtonda
C) Andijonda
D) Namanganda

445. (201430)XX asr boshlarida Labbaytog‘a dahasi qaysi shaharda bo‘lgan?
A) Jizzaxda
B) #Namanganda
C) Toshkentda
D) Andijonda

446. (201430)1916-yilgi qaysi shaharda bo‘lgan qo‘zg‘olonda 3 kishi o‘ldirildi va 12 kishi yaralandi?
A) Qo‘qonda
B) Farg‘onada
C) #Andijonda
D) Namanganda

447. (201431)1916-yil mardikorlikka olinadiganlarning tuziladigan ro‘yxatiga muvofiq, Samarqand viloyatining Jizzax uyezdidan qancha kishi olinishi mo‘ljallangan edi?
A) #11 ming
B) 9 ming
C) 7 ming
D) 13 ming

448. (201431)1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni rahbarlari va faol ishtirokchilarini aniqlang.
A) Nazirxo‘ja eshon, Abulqosim jevachi, To‘rabekov, To‘rabek Eshonqulov, Rahmonqul hoji
B) #Nazirxo‘ja eshon, Abdurahmon jevachi, To‘raqul To‘rabekov, Eshonqul To‘rabekov, Qosim hoji
C) Nazirxo‘ja eshon, Mirkarimboy, Solihbek dodhoh, To‘rabek qozi, Qosim hoji
D) Nazirxo‘ja eshon, Muhammad Yoqub, Abdurahmon jevachi, Aliqul To‘rabekov, Qobil hoji

449. (201431)Jizzax qo‘zg‘olonini bostirgan harbiy boshliqlarni aniqlang.
A) Putensev va Gippuis
B) Ivanovich va Kurapatkin
C) #Afanasyev va Ivanov
D) Korolkov va Kerenskiy

450. (201431)1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘olonining umumiy rahbari kim bo‘lgan?

A) #Nazirxo‘ja eshon
B) Abdurahmon jevachi
C) Mirkarimboy
D) Muhammad Yoqub

451. (201431)1916-yilgi qo‘zg‘olonlarda Mirzayor Xudoyorov qaysi hududdagi oqsoqol sifatida norozilik kelib chiqishiga sabab bo‘lgan?
A) Toshkent
B) Farg‘ona
C) #Jizzax
D) Namangan

452. (201431)1916-yilgi qo‘zg‘olonlarni eslang! Damin kulol boshchiligidagi hunarmandlar qaysi shaharda norozilik harakatini amalga oshirgan edi?
A) Toshkentda
B)  Farg‘onada
C) #Jizzaxda
D) Andijonda

453. (201431)Jizzax uyezdi aholisi asosan dehqonchilikning qaysi mahsulotini yetishtirar edi?
A) paxta
B) poliz mahsulotlari
C) #g‘alla
D) uzum

454. (201431)Jizzax uyezdida podshoning mardikorlikka olish to‘g‘risidagi farmoni qaysi sanada e’lon qilingan edi?
A) 9-iyul
B) 24-iyun
C) #3-iyul
D) 5-iyul

455. (201431)Jizzax uyezdida 1916-yilgi dastlabki norozilik harakatlari qaysi sanada boshlangan edi?
A) 7-iyul
B) 11-iyul
C) 13-iyul
D) #5-iyul

456. (201431)1916-yilgi Jizzax qo‘zg‘oloni bostirilgach, nima sababdan uning tinch aholisi cho‘lga haydaladi?
A) shaharda o‘lat kasalligi avj olganligi sababli
B) #aholining qo‘zg‘olonchilarga xayrixoh bo‘lganligi va podsho hukumatiga yordam bermaganligi sababli
C) podsho hukumati qo‘zg‘olon ko‘targan boshqa shaharlarga bu tadbir o‘rnak bo‘lishi sababli
D) cho‘l hududini o‘zlashtirish va uni unumdor yerga aylantirish

457. (201431)Jizzax qo‘zg‘oloni rahbarlaridan biri Abdurahmon jevachining kasbi, ya’ni jevachi nima?
A) tegirmonchi
B) paxta tituvchi
C) #qurol-aslahaxona boshlig‘i
D) ip yigiruvchi

458. (201431)Jizzax qo‘zg‘oloni rahbarlaridan biri Abdurahmon jevachi qo‘zg‘olonchilarni qayerda to‘plab, barcha birgalikda harakat qilishiga kelishib olishadi?
A) #Jizzaxdan 12 chaqirim uzoqlikdagi Kuyaboshi mavzeida
B) Zomin va Sangzor tumanlari oralig‘ida
C) Jizzax shahri yaqinidagi Ketmontepa qishlog‘ida
D) Jizzax uyezdiga uzoq bo‘lmagan Sangzor darasida

459. (201431)1916-yil qaysi shahardagi qo‘zg‘olonchilar temiryo‘l stansiyalarini, aloqa simlarini uzib, temiryo‘l va ko‘priklarni buzib tashlagan edi?
A) Toshkentda

B) Andijonda
C) #Jizzaxda
D) Eski Marg‘ilonda

460. (201432)1916-yilgi qo‘zg‘olonlar Turkiston xalqi uchun qanday yo‘qoyishlar olib keldi?
1) Jizzax atrofidagi bir qancha qishloqlar yondirilib yuborildi va aholining ko‘pchiligi uyjoysiz qoldi;
2) Mingtepa tumani butunlay yo‘q qilinib, o‘rniga Marhamat tumani tashkil etildi;
3) Turkiston aholisi orasida ko’plar qirilib ketdi;
4) qo‘zg‘olon kuzda bo‘lganligida ko‘pchilik dehqonlar hosilini yig‘ib ololmadi;
5) qo‘zg‘olon yoz faslida bo‘lganligidan ekinlar payhon bo‘ldi va aholi qish uchun g‘amlanadigan oziq-ovqatning katta qismidan ajraldi;
6) jazo tariqasida aholining yerlari qisqartirildi va o‘z hovlisida iborat kichik yernigina saqlab qoldi.
A) 2, 6
B) 1, 5
C) 1, 2, 3, 4, 6
D) #1, 3, 5

461. (201432) “Urush frontiga yangi bir Turkiston fronti qo‘shildi”, deb 1916-yil Turkistondagi voqealarga baho bergan shaxsni aniqlang.
A) #A.F.Kerenskiy
B) A.N.Kuropatkin
C) K.Palen
D) N.Godibekov

462. (201432) 1916-yildagi qo’zg’olonlarda o’lka keng xalq ommasining barcha tabaqalari, jumladan, ............. ham ishtirok etdi.
A) bolalar va ayollar
B) dindorlar va savdogarlar
C) #qariyalar va ayollar
D) harbiylar

463. (201433) XIX asr oxirlariga kelib, amir lashkari shoshilinch yig‘iluvchi, yomon ta’lim ko‘rgan va qoloq harbiy qurollar bilan qurollangan …
A) #dehqonlardan iborat edi
B) chorvadorlardan iborat edi
C) hammollardan iborat edi
D) hunarmandlardan iborat edi

464. (201433)XIX asr oxirida Buxoro amirligida paydo bo‘lgan telefon aloqasi qaysi ob’yektlarni bog‘lagan edi?
A) #Rossiya imperatorining siyosiy agentligi va qo‘shbegi uyi
B) Turkiston general-gubernatori uyi va Rossiya imperatorining siyosiy agentligi
C) Buxoro amiri Arki va Sirdaryo viloyati gubernatori uyi
D) Buxoro amiri Arki va Turkiston general gubernatori uyi

465. (201433) Buxoro amirligida joylardagi qonunlarning ijro etilishi, diniy amallarning bajarilishi, axloqiy mezonlar, bozorlardagi o‘lchovlar ustidan nazoratni qaysi amaldor olib borgan?
A) qozi
B) shayxulislom
C) #rais
D) qozikalon

466. (201433)XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligida uchta oliy amaldor kimlardan iborat edi?
A) qo‘shbegi, to‘pchiboshi, mehtar
B) qo‘shbegi, parvonachi, ko‘kaldosh
C) qo‘shbegi, otaliq, eshikog‘aboshi
D) #qo‘shbegi, devonbegi, bosh qozi

467. (201433)Buxoroning qaysi amiri Qrim va Kavkazga borganida qimmatbaho sovg‘alar va saroylar sotib olar edi?

A) Amir Muzaffar
B) #Amir Abdulahad
C) Amir Olimxon
D) Amir Nasrullo

468. (201433)XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligida aholining 90% ga yaqinini kimlar tashkil qilar edi?
A) #dehqonlar
B) savdogarlar
C) hunarmandlar
D) chorvadorlar

469. (201433)"Rossiya imperatorining siyosiy agentligi" nechanchi yillarda faoliyat koʻrsatgan?
A) 1886-1918-yillar
B) #1885-1917-yillar
C) 1886-1916-yillar
D) 1873-1886-yillar

470. (201433)Buxoro amirligining Koʻlob bekligida nechanchi yil qoʻzgʻolon koʻtarilgan edi?
A) #1888-yil
B) 1889-yil
C) 1885-yil
D) 1893-yil

471. (201433)Buxoro amirligida xirmonlarni xatga olgan shaxs foydasiga aholidan qanday soliq undirilgan?
A) #dorugʻayi muzd
B) kafsan
C) tanobona
D) yaksara

472. (201433)Buxoro amirligida qaysi lavozim ahamiyati va mavqei jihatidan qushbegidan keyingi oʻrinda turgan?
A) #Devonbegi
B) Shayxulislom
C) Koʻkaldosh
D) Mehtar

473. (201433)Buxoro amirligida koʻtarilgan nechanchi yilgi qoʻzgʻolon Pomir chegara qoʻshinlari koʻmagi bilan bostirilgan?
A) #1888-yilgi
B) 1889-yilgi
C) 1891-yilgi
D) 1885-yilgi

474. (201433)Buxoro amirligida bogʻ va polizlar uchun qanday soliqlar undirilgan?
A) dorugʻa
B) ushr
C) #tanobona
D) yaksara

475. (201433)Qachondan boshlab Buxoro amirligida rus qishloqlari paydo boʻla boshladi?
A) 1886-yil
B) #1888-yil
C) 1880-yil
D) 1890-yil

476. (201433)Buxoro amirligini Moskva bilan bogʻlaydigan temiryoʻl qaysi hududlar orqali oʻtar edi?
A) #Toshkent, Orenburg
B) Krasnavodsk, Mangʻishloq
C) Verniy, Avliyoota, Astraxan
D) Turkiston, Almati, Petropavlovsk

477. (201433)Rossiyaning Afg'oniston bilan olib boriladigan savdosi qaysi hudud orqali o'tar edi?
A) Qo'qon xonligi
B) Xiva xonligi
C) Turkmanlar yerlari
D) #Buxoro amirligi

478. (201433)Buxoro amiri Abdulahad hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
A) 1880-1918-yillar
B) 1886-1910-yillar
C) #1885-1910-yillar
D) 1893-1911-yillar

479. (201433) Vose qo'zg'oloni nechanchi yilda bo'lgan edi?
A) 1888-yil
B) 1889-yil
C) 1886-yil
D) #1885-yil

480. (201433)Baljuvon bekligida ko'tarilgan Vose qo'zg'olonining sababi nima edi?
A) beklik aholisining bir yilda ikki marta mehnat majburiyatiga jalb qilinishi
B) #oldingi hosilsiz yillar uchun ham o'sha yilning o'zida soliqlarni yig'ishga intilish
C) harbiylikdan bosh tortgan aholiga nisbatan ikki baravar "qozon puli" solig'ining joriy etilishi
D) kafsan solig'ining oshirib yuborilishi

481. (201433)Amir Muzaffar davrida Buxoro amirligida ko'tarilgan eng yirik qo'zg'olonlardan birini aniqlang.
A) Yetimxon qo'zg'oloni
B) Ko'lob qo'zg'oloni
C) Darvishxon qo'zg'oloni
D) #Vose qo'zg'oloni

482. (201433)XIX asr oxirida Buxoro amirligi aholisi qancha bo'lgan?
A) 3 mln. atrofida
B) #2 mln. atrofida
C) 1,5 mln. atrofida
D) 2,5 mln. Atrofida

483. (201433)Kalif dehqonlari nechanchi yil qo'zg'olon ko'tardi?
A) 1888-yil iyun
B) #1889-yil may
C) 1891-yil oktyabr
D) 1885-yil may

484. (201433-34)Kaspiyorti temiryo'li qurilgan yili Buxoro amirligida ...
1) Amir Abdulahad taxtga o'tirdi;
2) Rossiya imperiyasining vakili lavozimi ta'sis etildi;
3) Baljuvonda Vose qo'zg'oloni bo'ldi;
4) "Rossiya imperatorining siyosiy agentligi" tashkil etildi;
5) Vose va Amir Muzaffar o'rtasida so'nggi jang bo'lib o'tdi;
6) Amir Muzaffar vafot etdi.
A) 1, 2, 6
B) 1, 2, 5, 6
C) #1, 3, 4, 5, 6
D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

485. (201434) 1917-yil 8-aprelda jadidlar qaysi shaharlarda namoyish o'tkazishgan?
A) Kogon va Romitan
B) Vardonze va Chorjo'y
C) #Karki va Buxoro

D) Kogon va Chorjo‘y

486. (201434)1920 yilgi siyosiy-harbiy jarayonlardan keyin Amir Olimxon qayerga qochishga majbur bo‘ldi?
A) Xorazmga
B) #Afg‘onistonga
C) Toshkentga
D) Orenburgga

487. (201434)Buxoroda tuzilga birinchi hukumat – Xalq nozirlari kengashiga kim boshchilik qilgan?
A) S.Inog‘omxo‘jayev
B) #Fayzulla Xo‘jayev
C) A. Fitrat
D) Mahmudxo‘ja Behbudiy

488. (201434)Said Olimxon nechanchi yilda taxtga o‘tirgan?
A) #1910-yil
B) 1893-yil
C) 1918-yil
D) 1905-yil

489. (201434)Qachon yosh buxoroliklar Chorjo‘yda qo‘zg‘olon uyushtirdilar?
A) 1918-yil 1-mart
B) 1920-yil 6-oktabr
C) 1919-yil 2-mart
D) #1920-yil 29-avgust

490. (201434)Said Olimxon Peterburgga o‘qishga borgan yilni aniqlang.
A) 1889-yil
B) 1890-yil
C) #1893-yil
D) 1891-yil

491. (201434)“Inqilobchi yosh buxoroliklarning Turkistondagi markaziy byurosi” tuzilgan yilni aniqlang.
A) 1910-yil
B) #1920-yil
C) 1918-yil
D) 1917-yil

492. (201434)Yosh buxoroliklar amir hokimiyatining ag‘darilishi va demokratik tuzumning o‘rnatilishini mahalliy aholi orasida tashviqot qilish maqsadida qaysi matbuot nashrlarini tashkil qildi?
A) “Shuhrat” gazetasi va “El bayrog‘i” jurnali
B) “Xurshid” gazetasi va “Oyna” jurnali
C) #“Uchqun” gazetasi va “Tong” jurnali
D) “Shuhrat” gazetasi va “Al-izoh” jurnali

493. (201434)Buxoro amirligi hududi orqali dastlabki temiryo‘l o‘tkazilganidan 30 yil o‘tib …
A) Toshkentda birinchi tramvay paydo bo‘ldi
B) Amir hokimiyati ag‘darildi
C) #Jadidlar Karki va Buxoroda namoyishlar o’tkazishdi
D) qizil armiya tomonidan Buxoro egallandi

494. (201434)Buxoro amirligida faoliyat ko‘rsatgan jadid taraqqiyparvarlarini aniqlang.
A) Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Is’hoqxon Ibrat, Musajon Sayidjonov
B) Fayzulla Xo‘jayev, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Obidjon Mahmudov, Abduqodir Muhitdinov
C) #Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Usmon Xo‘ja, Abduqodir Muhitdinov, Musajon Sayidjonov
D) Mirzo G‘ulom, Hamza, Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Munavvar Qori, Abduqodir Muhitdinov, Musajon Sayidjonov

495. (201434)Buxoro amiri 1917-yil e'lon qilgan farmonida qaysi tadbirlarni amalga oshirishni va'da bergan edi?
1) odil sudlov, xiroj, zakot va boshqa soliqlarni undirishning barqaror asosini yaratish;
2) mehnat majburiyatlari bekor qilinishi;
3) amaldorlarga xizmat yuzasidan vazifalarni ijro etish chog'ida qo'shimcha ustama haq olish taqiqlanishi;
4) savdogarlar erkin savdo agentliklarini tuzish;
5) amaldorlarga davlat tomonidan belgilangan maosh tashkil etish;
6) mamlakat uchun foydali bilimlarni rivojlantirish va rag'batlantirish;
7) amir xazinasidan tashqari davlat xazinasini tashkil qilish;
8) davlat kirim va chiqimlarini belgilaydigan byudjet tashkil qilish;
9) bosmaxonalar ochish;
10)mahbuslarni zindondan ozod etish;
A) 1, 2, 3, 4, 5, 7
B) 1, 3, 4, 5, 6, 8, 10
C) 1, 2, 4, 5, 7, 9, 10
D) #1, 3, 5, 6, 7, 8, 9, 10

496. (201434)Arabcha "o'ta fidoyi" ma'nosini anglatadigan atamani aniqlang.
A) #mutaassib
B) radikal
C) konservativ
D) liberal

497. (201434)Buxoro amiri Olimxon Peterburgda qancha vaqt ta'lim olgan edi?
A) 2 yil
B) 13 yil
C) 7 yil
D) #3 yil

498. (201434) "Yosh buxoroliklar" iborasi qay tariqa paydo bo'lgan edi?
A) jadid maktablarini bitirgan buxorolik yoshlarning ijodiy faoliyati natijasida
B) Fayzulla Xo'jayev va Mahmudxo'ja Behbudiy tarafdorlarining madaniy islohotlari natijasida
C) #amirning 1917-yildagi farmonni amalga oshirish maqsadida tuzilgan qo'mita yosh buxoroliklar deb atalishi natijasida
D) jadidlarning o'zlarini boshqa hududdagi taraqqiyparvarlardan ustunligini ko'rsatishi natijasida

499. (201434)1917-yil Buxoro amirining farmoni e'lon qilingan bo'lib, bu farmonni qo'llab-quvvatlagan vazmin va bosiq yosh buxoroliklar vakillarini aniqlang.
A) #Mahmudxo'ja Behbudiy, Mullaxon o'g'li, Mirzo G'ulom
B) Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja
C) Mirzo G'ulom, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat
D) Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy

500. (201434)1917-yil Buxoro amirining e'lon qilgan farmonidan qoniqmagan holda islohotlarni yanada chuqurlashtirish tarafdori bo'lgan radikal harakat vakillarini aniqlang.
A) Mirzo G'ulom, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat
B) Mahmudxo'ja Behbudiy, Mullaxon o'g'li, Mirzo G'ulom
C) Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy
D) #Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja